

## Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

"JADID" GAZETASI  
JAMOASI VA  
MUSHTARIYLARIGA

## O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



vazifamizdir. Shu maqsadda 2024-yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qildik.

Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarini, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniyatlarni, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etamiz.

Qadri va muhtaram vatandoshlarim! Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo'lsin!

Go'zal Vatanimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

## Qadri do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlarini, ilm-fan va madaniyat ahlini, barcha muhtaram ziyolilarimizni ijtimoiy-ma'naviy hayotimizdagi muhim voqea – "Jadid" gazetasining birinchi soni nashr etilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ma'lumki, o'tgan asr boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy sharoitda milliy ozodlik, uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari bilan maydonga chiqqan ma'rifatparvar ajdodlarimiz o'zlarining benazir salohiyati, noyob insoniy fazilatlarini bilan fidoyilik va jasorat namunasini ko'rsatdilar. Ularning tabarruk xotirasini e'zozlash, boy merosi, ibratli faoliyatini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha yurtimizda katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

O'tmishda jadidchilik harakati markazlaridan biri sifatida shuhrat qozongan Vatanimizda bugun shu nomda yangi gazetaning faoliyat boshlayotgani bu boradagi ishlarimizning yana bir amaliy natijasi, tarixiy adolat tantanasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

O'lkamizda ilk milliy matbuot nashrlariga asos solgan ma'rifatparvar jadid bobolarimiz gazetani "butun dunyodagi madaniy millatlarning hayot yo'llari, olamdagi darajalari hamda insoniyat taraqqiyosining eng yuqori pog'onasiga erishmoq uchun lozim bo'lgan sa'y va harakatlari to'g'risida bir-birlari bilan maslahat va kengash qilmoq uchun bag'oyat zarur bir vosita" deb bilganlar.

"Jadid" gazetasi ana shunday ezgu an'analarni davom ettirib, ulug' ajdodlarimizning Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan mushtarak bo'lgan g'oya va dasturlarini atroflicha yoritish, bu qutlug' merosni el-yurtimiz, birinchi navbatda, yoshlarimizning qalbi va ongiga yetkazishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda o'ziga xos erkin minbar bo'ladi, deb ishonaman.

Ana shunday sharafli va mas'uliyatli vazifani ado etishda gazeta jamoasi va uning mualliflariga yutuq va omadlar, barcha mushtariylariga esa yuksak ijtimoiy tafakkur yor bo'lishini tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Aziz vatandoshlar!

Jonajon diyorimizga yangi – 2024-yil kirib kelmoqda.

Mana shu shukuhli damlarda duogo'y otaxon va onaxonlarimizni, mehribon opa-singillarimizni, barcha soha va tarmoqlar vakillarini, azmu shijoatli yoshlarimizni, chet ellardagi qadri vatandoshlarimizni – ko'pmillatli butun xalqimizni ushbu qutlug' ayym bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashviri va muammolari ham bo'lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o'tishga qodir.

Shu ma'noda, 2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik hukm surmoqda.

Tariximizda birinchi marta umumxalq referendumini asosida yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishni boshladik.

Ko'plab nufuzli anjumanlarni yuqori saviyada o'tkazdik.

Xalqaro maydonda muhim tashabbuslarni ilgari surdik.

Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga erishdik.

Respublikamizda yuqori texnologik zamonaviy sanoat korxonalarini, logistika va infratuzilma tarmoqlari, bog'cha va maktablar, madaniyat va sport obyektlari barpo etildi. Yangi-yangi ish o'rinlari ochilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz obod bo'lib, aholi hayot darajasi yuksalib bormoqda.

Birgalikdagi mehnatimiz tufayli Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda. Barcha erishgan yutuqlarimiz uchun siz, aziz vatandoshlarimga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram do'stlar!

Inson qadri va ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy

## MUHARRIR MINBARI

Assalomu alaykum, aziz gazetxon!

Ayonki, "jadid" so'zi "yangi" demakdir – fikrda, axloqda, ilmda, Vatanga muhabbatda yangilanish demakdir.

Yaqin tarixda o'tgan jadid bobolarimiz millat oydinlari edi. Ular ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-ilmiy, moddiy-texnikaviy sohalarida yangilikka intilishdi. Inson hurligini qadrlashdi. Vatan istiqloli va millat istiqbolini uchun jon fido qilishdi. Biz jadid ziyolilari, fidoyi bobolarimiz orzu qilgan istiqlol zamonida ularni yodga olamiz. Haqlariga duolar qilamiz.

## BIRLASHMOQ DAVRI

Jadidlarning orzulari armonga aylangan zamon – "tariximizning eng kirlik, qora kunlari" (Qodiriy) bir asr ortda qoldi. U – tarix, u – yaqin moziy. Tarix saboqlari bilan istiqbolga qaraladi. "Moziy – istiqbol tarozusidir" (Behbudiy). Jadid bobolarimiz o'g'itidan, ular hayotida yuz bergan shonli va armonli kunlardan ibrat olib, istiqbolga, Vatan va millat kelajagiga nazar solish lozim.

22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma'ruzasini tinglarkanmiz, ko'nglimizni bezovta qilib, uyqumizni qochirgan ko'p achchiq savollarga javob topdik. Davlatimiz rahbari jadid bobolarimiz kurashgan illatlar bugun ham taraqqiyotimiz oyog'iga tushov bo'layotganini ta'kidlab, najot faqat ilm-ma'rifatda, ta'lim-tarbiyada ekaniga yana bir bor e'tiborimizni qarattirdi.

Yig'ilishda Prezident tomonidan milliy taraqqiyotni har tomonlama jadallashtirishga, ziyoli va ijodkorlarni

birlashtirishga xizmat qiladigan ko'p ibratli tashabbuslar ilgari surildi.

Xususan, hurmatli Prezidentimizning bugun qo'lingizga yetib borgan yangi nashr – "Jadid" gazetasini tashkil etish tashabbusi yig'ilish ishtirokchilari tomonidan gulduros qarsaklar bilan kutib olindi. Zero, ma'rifatparvar bobolarimiz ham millatni uyg'otish, uni taraqqiy yo'lga olib chiqish uchun ishini aynan gazeta ta'sis etishdan boshlagani hammamizga kunday ayon.

Prezidentimizning "Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar", degan so'zlari shunchaki tarixiy ma'lumot emas, balki biz uchun jiddiy chaqiriq ekanini har birimiz teran anglashimiz shart.

(Davomi 4-sahifada)



Taqdir erkalatgan qizlar, yigitlar –  
Sohilda sayr qilib, atirgul hidlar.  
Xayolchan boqadi g'oziy shahidlar...  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Shaxsiy namuna yo'q, chunki lbrat yo'q,  
Olimlar juda ko'p, bitta Fitrat yo'q.  
Shu sabab majol bor, kuch bor, qudrat yo'q,  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ular g'isht qo'yg'an, biz toshlar otamiz,  
Ular so'z yiqqanlar, biz gap sotamiz,  
Ular kun kutgan, biz oylik kutamiz,  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Tavallo, Qodiriy, Cho'lponlar qayda?  
Hamzaxonlar qayda, Usmonlar qayda?  
Og'iz juda katta, yuraklar mayda,  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

O'shalar bizlarning bobolarmikan?  
Bizdan o'zlarini topolarmikan?  
Bizni nabiram, deb tan olarmikan?  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ular maktab qurgan, biz uy quramiz,  
Ular g'oya surgan, biz o'y suramiz.  
Yog'patomoshabin bo'lib turamiz,  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Qopog'on davr edi, qattol, qatag'on,  
O'tilib chiqqanni sharta otag'on...  
Bugun yuki yengil tuya yotag'on...  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

O'ziga kelmaydi o'zdan ketganlar,  
Ixlos qo'yib shayton dumin tutganlar...  
Qani yurt deb o'zini unutanlar?  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

She'r avjida birdan qalam sekinlar,  
Buyuk ustozlarim nima derkinlar?  
So'nggi jadid edi Abdulla, Erkinlar...  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ufqqa urilib, qaytib kelgan o'q  
Mening yuragimni teshib o'tgan cho'g'.  
Muallimlar serob, Avloniyalar yo'q.  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ta'lim-tarbiyani najot bilganlar,  
Ilmiga o'zlari amal qilganlar.  
Qarang, amal deb o'z jonin yulganlar,  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Maishat, to'y, hasham bosh maqsad hamon,  
Gapdan boshqa gap ham bor, ey qadrdon!  
Hamma zamonda ham kelmaydi zamon,  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Zanglagan zehnimni charxlab beradigan,  
Umrim savdosini narxlab beradigan,  
Shu she'rni o'g'limga sharhlab beradigan  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

**Iqbol MIRZO,**  
O'zbekiston xalq shoiri



# MA'NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqidan

Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oc qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar.

XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik.

\*\*\*

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o'zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur.

Yaqinda poytaxtimizda o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi konferensiya jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o'rtasida katta qiziqish va e'tibor uyg'otdi.

Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko'tarish maqsadida alohida Prezident qarori qabul qilindi.

Jumladan, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi bunyod etiladi.

Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir.

Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir.

Ana shu ishlarimizni davom ettirish maqsadida Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, "Shahidlar xotirasi" jamg'armasi hamda jamoatchilik vakillarining "Jadid" nomli yangi gazeta va uning elektron versiyasini tashkil etish haqidagi tashabbusini biz albatta qo'llab-quvvatlaymiz.

\*\*\*

O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi?

Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi?

Mana, bugun ma'naviyat-ma'rifat sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi.

Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi.

\*\*\*

Xalqaro maydonda madaniy diplomatiyaning o'zini tobora ortib bormoqda.

Xabaringiz bor, YUNESKO Bosh konferensiyasi sessiyalari qariyb 40 yildan buyon faqat Parijda o'tkaziladi.

2025-yilda esa bu konferensiyaning sessiyasini birinchi marta boshqa shaharda, ya'ni, Samarqandda o'tkazish belgilandi. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga a'zo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyuradi. Hech shubhasiz, bu – O'zbekiston uchun katta ishonch, ayni paytda mas'uliyat hamdir.

\*\*\*

Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini, ezgu g'oyalarni tarannum etishda o'zbek adabiyoti hamisha mustahkam zamin bo'lib kelgan va ishonamanki, doimo shunday bo'lib qoladi.

\*\*\*

Avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyamizni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqishimiz lozim.

Bu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablari hisobga olinishi zarur.

\*\*\*

Ulug' ma'rifatparvar Ibrat domlining: "Millatni kim isloh etar? Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur", degan hikmatli so'zlarida chuqur ma'no bor.

Fursatdan foydalanib, men muhtaram ulamolarimiz, din peshvolarini inson qadrini ulug'lash, tinchlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarimizda faol bo'lishga, o'zlarining ma'naviy fazilatlarini bilan boshqalarga o'rnak ko'rsatishga chaqiraman.

\*\*\*

Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan nopok kimsalardan ogoh bo'laylik!

Farzandlarimizni ularning buzg'unchi ta'siridan asrab-avaylaylik! Kelajagimizni yovuz kuchlar qo'lga berib qo'yishga aslo haqqimiz yo'q.

Agar barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz.

\*\*\*

Ta'kidlab aytmoqchiman: bugun ma'naviyat boshqa sohalaridan o'n qadam oldinda yurishi kerak, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!

Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviyat-ma'rifat ishlarini sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim.

\*\*\*

Teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha Madaniyat vazirligiga bir oy muddatda dastur ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish vazifasi topshiriladi.

Ushbu dasturda quyidagilar ko'zda tutilsin:

– tarixiy va zamonaviy mavzular bo'yicha 20ta eng yaxshi pyesa uchun ijodiy buyurtma berish orqali dramaturglarga 50 million so'mdan qalam haqi to'lash tizimini joriy etish;

– 50 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrilarida mahorat oshirishini yo'lga qo'yish;

– yosh rejissorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish va g'oliblarni munosib taqdirlash.

Bunga qo'shimcha ravishda besh yillik dasturga binoan teatrlar to'liq ta'mirlanib, eng ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinadi.

\*\*\*

Maqom san'atini rivojlantirish, uni qorong'ulikdan yorug'likka olib chiqish yo'lida jonbozlik ko'rsatayotgan san'atkorlarimizga har qancha rahmat aytisak, arziydi.

Xalq og'zaki ijodi durdonalarini keng targ'ib etib kelayotgan baxshilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

\*\*\*

Yana bir muhim yangilik – maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi 12 ta noyob madaniy meros namunalari bo'yicha an'analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

\*\*\*

Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi.

Ekspozitsiyalarni saqlash va muhofaza qilish bo'yicha barcha muzeylar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi va eng noyob ekspozitsiyalar markirovka qilinadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida Tarix muzeyi hamda San'at muzeyining zamonaviy yangi binolari barpo etiladi.

Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta'mirlanadi.

\*\*\*

Muqaddas kitob – Usmon Qur'oni sahifalari ham konservatsiya va restavratsiya qilinadi.

Yurtimizning ko'hna tarixiga bag'ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiramiz.

Shuningdek, Samarqandda Sohobqiron Amir Temur bog'lari qayta tiklanadi, "Buyuk ipak yo'li" muzeyini barpo etamiz va Bibixonim majmuasini restavratsiya qilamiz.

\*\*\*

Hozirgi vaqtda dunyo media olamida tele va kino seriallar jadal rivojlanmoqda. Dastlab ko'ngilochar va maishiy mavzularda paydo bo'lgan seriallar bugungi kunga kelib, turli davlat va millatlarning muayyan maqsadlarini targ'ib etish vositasiga aylanib bormoqda.

Savol tug'iladi: xalqimiz televizorni eng ko'p ko'radigan paytlarda, ya'ni "praym-taym" vaqtida xorijiy seriallarga katta o'rin berayotganimiz qanchalik to'g'ri?

Albatta, bularning barchasi oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, milliy seriallar ishlab chiqarish bo'yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, bu yo'nalishda ijodkorlarimizni qo'llab-quvvatlash lozim.

Aynan shu yo'l bilan milliy seriallarimizni g'oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali, hamma qiziqib ko'radigan darajaga yetkazish mumkin.

\*\*\*

Keyingi paytda mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shu ishlarimizning davomi sifatida umumta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitish samarasini oshirish masalasiga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratamiz.

Hech shubhasiz, "O'zbek tili va adabiyoti" fani o'qituvchilari ham xalqaro sertifikatga ega bo'lgan boshqa fan o'qituvchilaridan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha haq bilan ta'minlanishi kerak. Bu, albatta, adolatdan bo'ladi.

Shu maqsadda milliy sertifikatga ega bo'lgan "O'zbek tili va adabiyoti" fani o'qituvchilariga kelgusi o'quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to'lanadi. Bu maqsadlar uchun 2024-yilda qo'shimcha 10 milliard so'm, 2025-yilda esa 30 milliard so'm ajratiladi.

Boshqa tillarda ta'lim olgan ham yurtlarimizni davlat tilini o'rganishga rag'batlantirish bo'yicha ham alohida mexanizmlar joriy etiladi. Xususan, ular borada maxsus sertifikatga ega bo'lsa, o'qish xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Bundan tashqari, o'zbek tilidan boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o'qitish soatlari ko'paytiriladi.

O'zbek tili bo'yicha ham xalqaro fan olimpiadasini o'tkazamiz. Olimpiadaning g'olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Shuningdek, ular mamlakatimiz oliyog'larining o'zbek tili filologiyasi yo'nalishi bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

\*\*\*

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha boshlagan ishlarimiz davom ettiriladi. Kelgusi yildan milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari ko'pming nusxalarga chop etish va barcha kutubxonalarga yetkazib berish choralari ko'riladi.

Shu bilan birga, har yili eng yaxshi badiiy asarlar yaratish, tarjima qilish uchun ijodiy buyurtmalar berilib, muallif va tarjimonlarga munosib qalam haqi to'lanadi.

\*\*\*

Biz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino deb ko'p gapiramiz. Ammo bobalarimiz ularning qaysi asarini o'qiy oladi?

Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi deymiz, lekin ularning bolalik davrini kim biladi?

Demak, ana shunday allomalarimizning yoshligi haqida kitoblarni yozish, yozganda ham bolalarbop qilib yozish kerak.

Fursatdan foydalanib, men o'z sohasida ilmiy maktab yaratgan hurmatli olimlarimizni adiblar va noshirlar bilan hamkorlikda bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblarni yaratishga chaqiraman.

Yurtimizda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, turli yo'nalish va mavzudagi adabiyotlarni chop etishni ko'paytirish uchun nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash zarur. Shu maqsadda ushbu korxonalar 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi. Shuningdek, ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

\*\*\*

Albatta, bu zalda o'tirgan adiblarimiz tarjima san'atining naqadar mashaqqatli ish ekanini yaxshi biladilar. Mana shunday mas'uliyatli mehnatni munosib rag'batlantirish uchun ulug' shoir va tarjimon Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotini ta'sis etsak, nima deysizlar?

\*\*\*

So'nggi paytlarda o'z hisobidan kutubxona barpo etayotgan tashabbuskor insonlar ko'payib borayotgani barchamizni mamnun etadi.

Tasavvur qiling, 100 dan ziyod yurtdoshimiz bunday xayrli ishga qo'l urgan. Masalan, Marhamat tumanida tadbirkor Qobiljon Obidov 50 mingdan ziyod kitob fondiga ega, uch qavatli zamonaviy kutubxona tashkil etgan, bu ziyo maskanida 300 mingta elektron kitob ham mavjud.

Mana shunday insonlar jadidlarning munosib davomchilari, bugungi kun qahramonlari emasmi?

Marhamatlik ma'naviyat fidoyisi davlatimizning nufuzli ordeni bilan taqdirlangani ham shundan dalolat beradi.

Biz barchaga ibrat bo'layotgan bunday yurtdoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

\*\*\*

Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim.

Hayot bor ekan – jaholat ham, ma'naviy tahdidlar ham bo'lishi tabiiydir.

Ammo eng xatarlisi – yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir.

Tinch va farovon hayot qurish uchun avvalo odamlar qalbida bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo'lishi zarur.

\*\*\*

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo'ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirishda siz, madaniyat ahlining o'rningiz va ta'siringiz beqiyosdir.

Sizlar yuksak iste'dod va mahoratingiz, ijtimoiy hayotimizdagi faol ishtirokingiz bilan yangi Uyg'onish davrini barpo etishga albatta munosib hissa qo'shasizlar, deb ishonaman.



Ibrohim G'AFUROV,  
O'zbekiston Qahramoni

**A**sr to'liqlari yuraklarda jaranglab aks sado topadi. Vatanimizning har bir burchagidan quvonchli, hayajonli xabarlar oqimi ongimiz, shuurimizni to'laligicha egallab oladi. Vatanimizda g'ayrat, rag'bat, jasorat jo'sh urmoqda. Xalqimiz o'z yetakchisi bilan birgalikda ilm-fan sirlarini egallash, kashfiyotchilik, ishbilarmonlik bilan o'tgan, esda qoladigan damlarning sarhisobini qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yaqinda ma'naviyat va ma'rifat masalalariga bag'ishlangan anjumanda so'zlagan ma'ruzasini eshitib, ko'nglimda cheksiz faxr-iftixor tuyg'ularini his qildim.

Yurt yetakchisining sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston xalqaro miqyoslarda ishonch va e'tibor, hurmat va e'tirof qozonmoqda. Men Prezidentimizga dunyoga yo'llar ochuvchi va yo'llarni kashf qiluvchi tinib-tinchimas inson deb qarayman. Kaspiy tomon yo'llar bizni barqaror Yevropa va taraqqiyparvar Turkiyaga va ular osha Atlantikaga olib chiqadi. Bu yo'llarni tom ma'noda XXI asr odamlarining qalblariga kirib borayotgan yo'llar deb atagim keladi. Kimlar qadim yo'llarni buzmoqda, O'zbekiston qadim tarix yo'llarini tiklamogda. Bu yo'llar shunchaki bir makondan boshqa makonga olib boradigan yo'llargina emas, ular tamomila yangi zamon konsepsiyalari va hayotbaxsh dasturlaridir.

## INSON QALBIGA YO'L

Qanday yaxshi! Yo'llarning mundariyasi va mazmuni g'oyatda tig'iz. Biz Yangi O'zbekiston yo'llaridan emin-erkin yurib, ro'paramizdan chiqayotgan qiyinchiliklarni yengib o'tib bormayapmizmi, yosh avlodni ilm, iroda bilan chiniqtirmayapmizmi, ularning miyasini innovatsion ilm-fan bilan to'ldirmayapmizmi? To'ldiryapmiz! Chiniqtiryapmiz! Farzandlarimizni har qanday sharoitda yashovchan qilishga urinmoqdamiz. Real tushunchalarga oshno qilmoqdamiz, real baho va xulosalarga ko'niktirmoqdamiz. Odam real tushunchalar bilan yashasa va o'zini hayot uchun tarbiyalasa, Prezidentimiz aytmoqchi, insonparvarlik yo'llarini topib oladi.

Bu borada yangi tashkil etilayotgan "Jadid" gazetasi qutlug' qadam bo'lgay, inshaalloh!

Yo'llar va real siyosat – mana, Prezidentimiz har birimizdan talab qilayotgan ma'naviy-aqliy hodisa! Men bir qalam sohibi sifatida mana shu hodisani o'z ruhoniyatimda juda aniq sezib turaman. Ular meni hech narsaga qaramay harakatga chaqiradi.

Erkin nashriyotlar, erkin tahririyatlar, jurnalistlar jamoalari jamiyatimizning eng og'riqli dardlari ustida jon kuydira boshlaganini hammamiz ko'rib turibmiz, yangi jurnalistlar maydonga chiqmoqda. Kurash faqat shaxmat taxtasi va ranglarda emas: hayotning har bir dami jang! Ammo bu kurashlarda eskilik o'ladi, yangilik, yangi aql-idrok, hissiyotlar bosh ko'taradi: Renessans shunday zabtga ega bo'ladi. Hayotda mutlaqo inkor qilib bo'lmay haqiqatlar bor: ozod makon, ozod dil, ozod adib, ozod fermer, ozod jurnalist, ozod ilm-fan, ijod endi chin mukim, kelajakka o'lmas merosimiz. Bularning ulug' xiyobonlari, ulug' yo'llari, ulug' kitobxonlari mavjud. Shularning nashidalari bilan ulug' bayram kunlariga eson-omon, to'rt mucha to'kis kirib kelmoqdamiz. Yangi yil nashidalariga sazovormiz. Har bir vatandoshim sazovor. Yangi yil qutlug', tinch-farovon yetib kelsin. U barchamizga qutlug' va shonli bo'lgay, ilohim, aziz yoronlar!



**Insoniyat yangi zamonga kirib bormoqda. Bu jarayonda milliy-ma'naviy qiyofani saqlab qolish eng muhim masalaga aylandi. Yangi dunyoning ma'naviy ildizlari, tayanch ustunlari endi nimalar bo'ladi, degan cho'ng bir savol daqiqa sayin kattarib, kengayib boradi. Xo'sh, Yangi O'zbekistonning ma'naviy asosi nimalarda ko'rinadi?**

Zotan, murojaatda aytilganidek, "Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolati, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir".



**Shahnoza NAZAROVA,**  
filologiya fanlari doktori

## UYG'ONISH NUQTASI

2023-yil 11-12-dekabr kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumandan keyingi o'ylar



**M**ana shu savolga javob topish maqsadida juda katta intilishlar yuzaga chiqmoqda. O'shanday intilishlardan biri sifatida joriy yilning 11-12-dekabr kunlari Toshkentda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya turkiy dunyoning g'oyaviy kelishuvi, istiqboli, ma'naviy qiyofasini belgilab olishda platforma vazifasini bajarishi ko'zda tutilgandi.

Inchunin, davlatimiz rahbarining anjuman ishtirokchilari, umuman, shu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan olimlarga murojaati milliy va xalqaro miqyosda qilinishi kerak bo'lgan ishlar, turkiy dunyo farzandlarining ma'naviy qiyofasini saqlab qolish va yangi ufqlarni ochishga qaratilgan harakatlar dasturini ishlab chiqish talabi bo'lib ham yangrad.

"O'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarning Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda", deyilgan murojaatda bu harakat dasturining bosh bo'g'inlari sifatida bir qator yo'nalishtirish ko'rsatib berildi.

**Birinchi:** taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish.

**Ikkinchi:** Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'rni va ta'sirini o'rganish.

**Uchinchi:** XX asrning birinchi choragida ular barpo etgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish.

**To'rtinchi:** dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish.

**Beshinchi:** Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalarni kechiktirmay kun tartibiga qo'yish.

**Oltinchi:** jadid bobolarimizdan meros yo'l - bilim va ma'rifat,

dunyoviy taraqqiyotni egallashda yangi bosqichga ko'tarilish.

**Yettinchi:** maktab, teatr, kutubxona, nashriyot, gazeta-jurnallar faoliyatida, yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yuborish, jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish amaliyotida jadidlar kabi milliy taraqqiyot yo'lidan og'ishmaslik.

**Sakkizinchi:** davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadjriy asosda tubdan isloh qilish uchun g'oyaviy va amaliy harakatlar olib borishda jadidlar kabi yangi milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarishda bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish.

**To'qqizinchi:** xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning

Anjuman doirasida 70 dan ortiq ma'ruza tinglandi. Bu dunyo miqyosidagi sohaga doir tadqiqotlar xaritasini yetarlicha tasavvur qilish imkoniyatini yaratdi.

Shu o'rinda bir mulohaza bor. Istiqlol tufayli XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti hamda tarixini har jihatdan izchil o'rganish uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Mana shu muhitda fikri yetilgan yangi avlod tadqiqotchilari endi bu borada o'z so'zini aytishi kerak.


Jadidshunoslik allaqachon xalqaro fan tarmog'iga aylandi. Turkiy xalqlarning barchasi bu davrni zamonaviy dunyoga qo'shilish darvozasi sifatida baholaydi va qadriyat darajasida o'rganadi. Shundan kelib chiqib, turkiy bo'lmagan xalqlar ham jadidlar davrini yangi uyg'onish bosqichi sifatida qabul qiladi va kelajak hayotimizni shu asosda prognoz

qolishdek kechiktirib bo'lmas vazifani ado etish zarur. Mukammal alifbo non va havodek qanchalar zarur bo'lsa, bu manbalarni yaroqli holatda saqlash, yangi formatga o'tkazish ham o'shanday zarurdir. XX asr boshlarida jadid bobolarimizning jasorati bilan chiqqan gazeta-jurnallar, qo'lyozma, toshbosma va bosma kitoblardan yaqin besh-o'n yildan so'ng hech narsa qolmasligi mumkin. Ular shiddatli vaqt bo'ronida chang va kapalaklarga aylanib bormoqda. Hali keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan "Sabzazor", Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi nodir qo'lyozma, toshbosma va bosma asarlar fondida saqlanayotgan "Milliy ash'ori Tarjimon", "Milliy she'rilar majmuasi yoxud adabi din", "Yangi adabiyot" kabi bayoz, majmua, she'r to'plamlari mavjudki, ularni izoh va tadqiqi bilan qaytadan mukammal nashr etishga ulgurish lozim. Ularning saqlanish holati xalqaro talablar darajasida emas. Yangi, sifatli qog'ozga nusxalari ko'chirilgan, elektron varianti ham tiniq va sifatli bo'lmay, foydalanuvchilar uchun yopiq holatda. Germaniya, Turkiya, Rossiya, hatto Niderlandiya fond va arxivlarida Cho'lpon, Fitrat kabi jadid bobolarimizning bizga noma'lum mislsiz asarlari, tarixiy hujjatlar bizni kutayotgan bo'lsa, ajabmas.

Bunday keng ko'lamdagi ishlarini bajarish, xorijdagi materiallarni aniqlash, yig'ish, olib kelish, avvalo, ularni belgilangan tartibda talab qilish uchun aniq huquqiy asoslarga va harakat doirasiga ega bo'lish lozim. Xalqaro talablarga javob beradigan sharoitda saqlash, manbalardan foydalanishda ochiqlikka erishish, qo'lga kiritilgan barcha ilmiy natijalarni yagona nuqtada jamlash va ularni milliy g'urur timsoli sifatida o'rganish uchun Xalqaro jadidchilik ilmiy-tadqiqot markazi, uning o'z harakat dasturi kerak edi. Prezidentimiz murojaati sabab endi harakat dasturi mavjud. Faqat amaliy ish qoldi. Zotan, yangi uyg'onish nuqtasi aynan bizdan boshlanishi kerak.

*Ilm - bilmagan narsalarini bilganlardan o'rganmoqdir. Ilm - odamning zehni ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirur, dunyoda baxtli va izzatli qilur.*

Munavvarqori Abdurashidxonov



faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib qilish.

**O'ninchi:** arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun maqsadli grantlar o'lon qilish, yangi badiiy va publistsik asarlar yaratish, xorijiy ilm-fan markazlari, fond va muzeylar, kutubxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

**O'n birinchi:** ma'rifatparvar bobolarimiz olg'a surgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan intilishlarni hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlar uchun chinakam ibrat namunasiga, da'vatkor kuchga aylantirish.

### IZHOR

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

**Muhtaram Prezident,**

Sizga yaxshi ma'lumki, XX asrning dastlabki choragi Turkiston o'lkasining ijtimoiy-ma'rifiy hayotida yangi Milliy uyg'onish davri sifatida tarixdan joy oldi.

Mazkur jarayonning tashabbuskorlari va yetakchilari jadid ma'rifatparvarlari edi. Jadidchilik harakatining fidoyi namoyandalari Millat va Vatan taraqqiyoti yo'lida beminnat xizmat qilib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar, milliy matbuot va kinematografiyaga asos soldilar.

Turli millat va elatlarga mansub bu ulug' zotlar "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi asosida birlashib, Markaziy Osiyo va turkiy dunyo xalqlarining qardoshligi va hamjihatligi masalasini kun tartibiga olib chiqdilar. Ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, fikr va qarashlari hanzuhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, Siz Janobi Oliyularning rahbarligida barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonning g'oyaviy va ma'naviy asosini tashkil etmoqda.

Shu o'rinda, musulmon olami va turkiy dunyo tarixida yorqin iz qoldirgan jadidchilik harakatini har tomonlama chuqur o'rganishda Sizing tashabbusingiz bilan joriy yilning 11-12-dekabr kunlari azim Toshkent shahrida o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumaning o'rni beqiyos.

Anjuman yuqori darajada tashkil etilib, unda o'zbekistonlik taniqli jadidshunoslar bilan bir qatorda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya kabi mamlakatlardan 40 dan ziyod ko'zga ko'ringan olimlar, davlat va jamoat arboblari ishtirok etdilar.

Dunyo tarixidagi noyob fenomen deb e'tirof etiladigan jadidchilik harakati mavzusi bilan ko'p yillardan beri shug'ullanib kelayotgan mutaxassislar sifatida biz birinchi marta bunday yuksak saviyada tashkil etilgan ilmiy anjumanda ishtirok etganimizni alohida ta'kidlashni o'rinni deb bilamiz.

13-dekabr kuni Buxoro shahriga uyushtirilgan safarimiz davomida jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Usmonxo'ja Po'latxo'jayev istiqomat qilgan "Hovli poyon" tarixiy maskanida Jadidchilik tarixi muzeyini tashkil etish bilan bog'liq ishlar ko'lami bilan tanishdik. Dunyoda jadidchilik harakatiga bag'ishlangan bu kabi boshqa markaz mavjud emas va shu sababdan ham Sizing ushbu tashabbusingiz yuksak tahsinga sazovor.

Qadimiy va betakror O'zbekiston diyorida Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishga doir davlat siyosatini qat'iy amalga oshirayotganingiz, ilm-fan, ta'lim va tarbiya, madaniyat va san'at, adabiyot sohalarini rivojlantirish, xususan, jadid ma'rifatparvarlari faoliyatiga ko'rsatayotgan ulkan e'tiboringiz uchun barcha anjuman qatnashchilari nomidan samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Sizga uzoq umr, mustahkam sog'lik, O'zbekiston ravnaqi yo'lidagi serqirra faoliyatingizga yangi zafarlar tilaymiz.

Biz o'z hayotiy tajribamiz va ilmiy salohiyatimiz bilan O'zbekiston taraqqiyotiga hissa qo'shishga doimo tayyor ekanimizni izhor etishdan baxtiyormiz.

**Hurmat bilan,**

**Temur XO'JAO'GLI,**

Michigan davlat universiteti  
faxriy professori, anjumanni  
o'tkazish bo'yicha ilmiy-tashkiliy  
hay'at raisi;

**Yulay SHAMILO'G'LU,**

AQSHlik tarixchi olim,  
Nazarboyev universiteti  
professori;

**Adib XOLID,**

AQSHlik tarixchi olim,  
Karlton kolleji dotsenti;

**Avuz AKPINAR,**

Turkiyaning Egey universiteti  
faxriy professori;

**Ismail TURKO'G'LU,**

Turkiyaning Me'mor Sinon  
Tasviriy san'at universiteti  
professori;

**Hisao KOMASU,**

Yaponiyaning Tokio  
universiteti faxriy  
professori.

### QUTLOV

## "JADID" GAZETASI TAHRIRIYATIGA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Janob Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Jadid" nomidagi yangi ro'zno-ma chop etilayotganini eshitib cheksiz quvondim. Jadidlar chin ma'noda o'z xalqining erki, ozodligi uchun kurashgan, shu yo'lida jonlarini fido qilgan millatparvar shaxslar timsolidir. Jadidlar millatning turmush tarzini o'zgartirishning eng asosiy yo'li xalqni uyg'otish, uni ma'rifatlil qilish, ta'limni isloh qilishni hayot va mamot yo'li deb bildilar. Ular bosib o'tgan yo'l bugun ham biz uchun ibrat yo'lidir. Men o'yaymanki, jadidlar faoliyati katta-katta tadqiqotlarga arziydi. Ularning har birini ilmiy o'rganish bizga ko'p narsalarni beradi.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlashni istardim: jadidlarning



**TURKSOY**

ko'pga mashhur bo'lgan "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi hamma vaqt dolzarbdir. Bu bizning Turkiy davlatlarning birlashuvi va kelajakdagi ulug'vor maqsadlariga tom ma'noda uyg'un keladi.

Turkiyada turib, shunday quvonchli xabarni eshitarkanman, nafaqat o'zbek xalqiga, jami turkiy xalqlarga "Jadid" gazetasi-ning qadami qutlug' bo'lsin, deyman.

**Sulton RAYEV,**

Xalqaro turkiy madaniyat  
tashkiloti TURKSOY Bosh kotibi



## QUTLOV

## JADIDLAR MEROSI – KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Bugun hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizda ma'rifatparvar jadid ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyati, ularning ilmiy-ijodiy merosini o'rganish va ommalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yaqinda Toshkent shahrida ushbu mavzuda yirik xalqaro konferensiya o'tkazilgani buning yaqqol dalilidir.

"Jadid" gazetasining tashkil etilgani ham ana shunday ezgu ishlarning yana bir yorqin namunasi bo'ldi. Dunyoda globalashuv va mafkuraviy kurashlar tobora shiddatli tus olayotgan hozirgi murakkab davrda ushbu yangi ma'rifiy nashr yosh avlodni vatanparvarlik, jadid bobolarimizning ma'rifatparvarlik g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashda munosib o'rin tutishiga ishonaman.

**Amanbay ORINBAYEV,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Jo'qorg'i Kengesining Raisi

## BIRLASHMOQ DAVRI

Boshi 1-sahifada

"Jadid" gazetasi ana shunday jasoratli ziyolilar uchun asosiy minbarga aylanishiga bel bog'laganmiz va bu borada barcha jonkuyar, fidoyi yurtdoshlarimizni ijodiy hamkorlikka chorlaymiz.

Yangi nashrning aynan ana shunday vazifani ko'p yillar ado etib kelgan "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi negizida tashkil etilganida nafaqat ramziy, avvalo, chuqur tarixiy ma'no, vorislik tuyg'usi bor. Shu ma'noda, ikki jilg'a birlashib, katta bir daryoga aylanadi, deb ishonamiz.

Zotan, Vatan va millat manfaati yo'lida hamma zamonlarda fidoyilar – o'zini, o'zligini teran anglagan ilg'or shaxslarni birlashtiradi.

Shu bois biz peshqadam jadidlarimizning "Tilda, fikrda, ishda birlik!", degan g'oyasini o'zimizga bosh shior qilib oldik.

Ilo, jadid bobolarimiz ham "Oyina", "Taraqiy", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Najot", "Hurriyat", "Al-isloh" kabi gazeta-jurnallar orqali xalqimizni jipslashtirishga, hurriyat, ma'rifat g'oyalari xalq ichiga olib kirishga astoydil sa'y-harakat qilgan edilar.

Shu o'rinda hurmatli Prezidentimizning hozirgi paytda jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar zarurligi haqidagi fikrlari ham nihoyatda dolzarb ekanini ta'kidlamochimiz. Bunday kadrlarni kim tayyorlaydi, degan savolga davlatimiz rahbari shunday javob berdi: "Albatta,

Yangi O'zbekiston, jumladan, yangi Qoraqalpog'istondagi hozirgi ulkan yangilanishlar jadid bobolarimizning o'lmas g'oyalari hamohang ekanini g'urur-iftixor bilan e'tirof etamiz. Qoraqalpog'istonda ham jadidlar merosini o'rganish va xalqimiz o'rtasida targ'ib qilish ishlarini izchil davom ettiramiz.

Fursatdan foydalanib, butun xalqimizni "Jadid" gazetasining ilk soni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman. Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini targ'ib qilishdek g'oyat mashaqqatli va sharafli yo'lida tahriyat jamoasiga ulkan muvaffaqiyatlar, ijodiy faollik tilayman.

o'zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur".

Haq gap. Vatanimiz, xalqimiz taqdiriga daxldor bo'lgan hayot-mamot masalasida boshqa birovdan najot kutishimiz o'rinsiz. Faqat o'zimiz, moziyga tayanib, kelajakka intilib, zamon talablariga javob beradigan yosh jadidlar tarbiyalashimiz lozim.

Bu – "Jadid" gazetasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Aziz do'stlar!  
"Jadid" – bu Yangi O'zbekistondagi Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida Vatanning har bir fuqarosi tafakkurini tub-tubidan yoritib turadigan ma'rifat chirog'idir.

"Jadid" – bobolar orzu qilgan yangi zamon shodiyonasining shukronalari izhoridir.

"Jadid" – loqaydlik va tanballik dushmani, eng mayda ijtimoiy-maishiy jaholat yuziga ham ilm-fan va ma'rifatning tiniq ko'zgusini tutguvchi nashrdir.

"Jadid" – bu faqat o'tmish emas, jadid – bugun va kelajakdir.

"Jadid" – mustaqil O'zbekistonning ma'naviyat sarhadlari daxsizligini tunu kun xuddi vatanparvar va sergak, fidoyi va jasur askar kabi himoya qiladi.

Sizning yangi nashringiz – "Jadid" gazetasi barchamizga muborak bo'lsin va uning tez kunda ishga tushiriladigan elektron shakli yangi fikr uqlarini ochaversin!

Iqbol MIRZO

## ZAMON JADIDLARI

**Andijon viloyati Marhamat tumanida yashovchi tadbirkor Qobiljon Obidov xalqimizning farovonligi, ma'naviy yuksalishi borasida muhim loyihalarni amalga oshirib kelayotgan, el orasida yuksak hurmat-e'tibor qozongan yurtdoshlarimizdan.**



## CHIN MA'NODA MARHAMATLIK TADBIRKOR



Qobiljon Obidov  
kitobxonlar davrasida.

U keyingi yillarda yana bir ezgu ishni amalga oshirdi: Marhamat shahriga kiraverishda zamonaviy muhtasham kutubxona barpo etib, foydalanishga topshirdi. Viloyatning qo'shni davlatga chegaradosh hududida bunyod etilgan bu ziyo maskanini betakror zamonaviy arxitekturasida, baland va yorug' zallari, uch qavatli binoda aylana shaklida joylashgan boy kitoblar fondi, kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning qulayligi jihatidan vohiyda yagona deiysh mumkin.

Kutubxonada o'zbek va jahon adabiyotining sara namunalari iborat ellik mingdan ziyod kitob jamlangan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining to'rt yuz ming nusxa elektron kitoblaridan bu kutubxonaning o'zida foydalanish imkoniyati mavjud.

Kutubxona bir vaqtning o'zida 250 nafardan ziyod kitobxonaga xizmat ko'rsatadi. Bu yerda deyarli har kuni

kitobxonlik, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazib kelinmoqda.

Kutubxona vazirliklar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Yaqinda O'zbekiston Mudofaa vazirligi taqdim etgan to'rt yuzta badiiy adabiyot, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan turli nomdagi besh yuzdan ortiq kitob, Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi sovg'a qilgan to'rt yuzdan ziyod elektron kitoblar bilan kutubxonaga fondi boyitildi.

Tinib-tinchimas tadbirkor ziyo maskani yonida Erkin Vohidov nomidagi shaxmat maktabi, shoirning hayoti va ijodiga oid muzey ham tashkil etgan.

– Kutubxona ochishni anchadan beri orzu qilardim, – deydi Qobiljon aka. – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda kitobxonlikni rivojlantirish, yosh avlodning kitobga bo'lgan muhabbatini yuksaltirish bo'-

yicha yangi qarorlar imzolaganidan keyin ushbu maqsadimni amalga oshirish bo'yicha loyihamni tayyorlagan edim. Prezidentimizning Turkiyadagi milliy kutubxona ochilish marosimida qatnashganini kuzatib, Marhamat tumanida ham zamonaviy kutubxonaga qurishga qaror qildim. Uchinchi Renessans davrining vakillari yetishib chiqishi uchun, avvalo, bilimli, kitobxon avlodni tarbiyalashimiz lozim. Bundan tashqari, keksa yoshdagi yurtdoshlarimiz uy sharoitida farzand-nabiralar qurshovida kitobxonlikka sharoiti yetarli bo'lmasligi mumkin. Bizning kutubxonamizda esa, har bir yoshdagi kitobxonlar uchun tinch va yaxshi sharoit yaratilgan. Kitob uchun, kutubxona, ma'rifat uchun sarf bo'lgan mablag'ni hisob-kitob ham qilmayman. Yaqinda yoshlarni kitobxonlikka qiziqtirish, bilimlari yuksalishi uchun mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda jadid bobolar hayoti va faoliyati, ma'naviy merosini o'rganishga oid tanlov nizomini tayyorladik. Kelajakda kutubxonamiz tarmoqlarini ta'lim muassasalari kesimida kengaytirish bo'yicha ham loyihalarimiz bor.

Qahramonimizning so'zlarini tinglar ekanmiz, uning timsolida ma'rifatparvar bobolarimizning munosib izdoshini ko'rdik va shunday marhamatli, vatanparvar tadbirkorlarimiz ko'payaversin, deb niyat qildik.

Xurshida QO'CHQOROVA

**Xalqimiz – tinchliksevar xalq. Boshqa masalalarda turlicha fikrlashi, bahslashishi mumkin, lekin bu borada hamma birdam, hamjihat. Keksayu yosh avvalo tinchlik bo'lsin, deydi. Prezidentimizning eng katta orzu-intilishi, tashvishi va amaliy harakatlari ham – xalqimizning tinchligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan.**



Bugun dunyo shunchalik tahlikali, tinchlikni saqlashning o'zi juda katta mehnat-mashaqqat bo'lib qoldi. Oxirgi yillarda jahon geosiyosati keskin o'zgard.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yaqinda bo'lib o'tgan majlisida davlatimiz rahbari bu masalaga ham to'xtalib, dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'lga o'tganini ta'kidladi. Afsuski, bunday keng ko'lamlari va o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri Markaziy Osiyo va uning bir qismi bo'lgan mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti.

Bunday sharoitda oqilona yo'l topish, obrazli aytganda, "tarozini to'g'ri ushlab" oson emas. Prezidentimiz ana shunday oqillik va mohirlik bilan O'zbekiston manfaatlarini himoya qilib kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining o'zi bu haqda to'xtalib: "Zamon juda murakkab. Hozir

katta-katta davlatlar "O'zbekiston, sen kim tomondasan?", deyapti. Qattiq-qattiq aytib, vakillari ham kelib, o'zlari ham shunga da'vat qilyapti. "O'zbekiston aholisi 36 million bo'ldi, uch-to'rt yilda 40 millionli katta davlat bo'ladi, sizlar kim tomondasiz?", deb so'rayapti. Bunday og'ir savolga javob bitta – men xalqim tomondan. Millatim, xalqim, buyuk O'zbekistonimning manfaati uchun jonimni berishga ham tayyorman", degan edi.

Buni ko'pdan-ko'p misollarda ko'rish mumkin. Masalan, tashqi siyosatdagi aloqalar tenglik, ochiqlik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan. Uzoqmi-yaqinmi, barcha davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirishga harakat qilinaypti.

Prezidentimizning birgina 2023-yildagi xorijiy tashriflari geografiyasiga e'tibor bering: Singapur, Qirg'iziston, Misr, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya, Xitoy, Italiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Turkmaniston, Vengriya, Toji-

kiston, AQSH, Qatar, Rossiya, Birlashgan Arab Amirliklari.

Bundan tashqari, Qatar, Singapur, Fransiya, Italiya kabi rivojlangan davlatlar rahbarlari mamlakatimizga keldi. Shu nomlarning o'zidan ham bilish mumkinki, davlatimizning tashqi siyosati erkin, ko'p qirrali.

Endi o'zimizga savol beraylik, nima uchun shuncha mamlakatlar O'zbekistonga eshiklarini ochayapti, hamkorlikka intilayapti? Ishonganidan! Nimaga? Davlatimizning siyosatiga, iqtisodiyotiga, ertangi kuniga.

\*\*\*

Ishonchni qozonishning omillari ko'p. Lekin eng muhimlari – mardlik, birso'zlik, bag'rikenglik. Agar bu ma'naviy fazilatlar rahbarda bo'lsa, millionlab insonlarga naf keltiradi.

Esimizda, Shavkat Mirziyoyev 2016-yildayoq qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilashini aytgan edi va so'zining ustidan chiqdi. Siyosiy iroda, o'zaro murosa va keng yurak bilan g'oyat nozik masalalarga ham oqilona yechim topildi. Qardoshlar o'rtasida yana yaxshi qo'shnichilik, ahillik muhiti paydo bo'ldi. O'zbekiston mintaqamiz markazida bo'lganidek, bunda bizning Prezidentimiz markaziy o'rin tutdi. Xalqaro maydonda mamlakatimizga hurmat oshdi.

Bugun qardoshlarimiz bilan aloqalarning iqtisodiy, tijoriy, madaniy tomonlari haqida uzoq gapirish mumkin. Natijalar ko'p. Lekin, eng muhim yutuq

## TINCHLIK QADRI

– millionlab odamlarning qalbida uyg'ongan iliq munosabatdir. Buning ahamiyatini anglash uchun chegara oldida yashagan, siyosat tufayli tutqun bo'lib, yaqinlarini yillar davomida ko'ra olmagan odamlarning dardini his etish kerak. Chegaradan o'tkazish punktlari ochilib, bordi-keldi osonlashganida ota-onasi, qarindoshlarini bag'riga bosib yig'lagan insonlarning yuz-ko'zlariga qarash kerak. Bu his-tuyg'ular tabiiy, aldamaydi.

Shundan beri qardosh ellar bundan bahramand. Hozir sayyohlar, tadbirkorlar ham o'zaro borib kelyapti. O'zimiz ham qo'shni davlatlarda xizmat safarida bo'lmoqdamiz. Bilasizmi, odamni xursand qiladigan nima? Hamma joyda o'zbeklarga, O'zbekistonga munosabat o'zgargan – ochiq yuz bilan ko'rishadi, yordamga shoshiladi, mehmonga taklif qiladi, gaplashgisi keladi.

Insoniylik, mehr-oqibat qanday yaxshi. Birgina inson tufayli, to'g'ri siyosat tufayli millionlab odamning fikri o'zgard, bir-biriga hurmati oshdi. Bu nafaqat qo'shni xalqlar, balki yurtimizdagi ijtimoiy muhitga ham ijobiy ta'sir qildi. Mamlakatimizda tojik, turkman, qozoq, qirg'iz va boshqa millatlarga mansub vatan-doshlarimiz ochiq ko'ngil bilan tinch-totuv yashamoqda.

\*\*\*

Biz, odatda, faqat ko'chalarda-agi o'zgarishlarni sezamiz. Turli yangiliklarga raqamlarga e'tibor beramiz. Lekin doim ham ko'zga tashlan-

maydigan, hamma o'zgarishlarning asosi bo'lgan bir yutuq bor. Bu – tinchlik!

Bolaligimizda urush voqealarini kinolarda ko'rardik, qariyalardan eshitardik. Afsuski, hozir bu hayotda bo'layapti. Uzoqda ham emas, yaqin mintaqalarda.


Televizionni qo'yishga, gazeta o'qishga ba'zan yurak betlamaydi. Dunyo xabarlarida fojia va dahshatlarga ko'z tushadi-tanklar, portlashlar, dod-faryod-

miz. Ko'cha-ko'yga qarasang, qayergadir chog'langan, intilgan odamlarni ko'rasan. Chunki ertangi kunga ishonch bor.

Bolalar maktabga borayotganidan xursand. Yoshlar chet tili kurslarida, sport to'garaklarida band. Kattalar birni ikki qilish harakatida. Har zamon do'stlar bilan yig'ilishib, hazil-mutoyiba ham qiladi. To'yxonalarda kunda-kunora to'y. Bir qarashda bular oddiy narsalar. Lekin

*Turkiston musulmonlarining nafi, birinchisi g'alla... ikkinchisi askar... uchinchisi tazminoti harbiya mas'alsidir...*

Mahmudxo'ja BEHBUDIY



lar... Necha yillar davomida rivojlangan, obod bo'lgan shaharlar vayronaga aylanoqda. Qurolli to'qnashuvlar oqibatida begunoh insonlar, hatto bolalar qurbon bo'layotir. Odamlar boshpanasiz qolib, og'ir musibatlarini boshdan kechirmoqda. Ko'zlarida qo'rquv, xavotir. Shularga qarab, ham fikr, ham shukur qiladi inson. Dunyoda eng qadri ne ma' tinchlik ekanini anglaydi. Osoyishtalik bo'lmagan joyda hamma boylik, mehnat va umidlari o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Ming shukurki, O'zbekistonimizda osoyishtalik. Har kuni tinch-xotirjam uyg'onamiz. Oila bag'rida nonushta qilib, rejalarimizni bajarishga shoshila-

inson uchun eng muhimi shu emasmi – tinch-omon bo'lish, sifatli yashash, farzandlarini yaxshi tarbiyalash. Hayotning mazmuni oila, el-yurt bilan-ku.

Mana, yangi yil keldi. Yaxshi niyatlarni bilan yana bir yilga qadam qo'ydik. Odamlarda ham, mamlakat oldida ham maqsadlar ko'p. Ular ro'yobga chiqishi uchun, avvalo, tinchlik, hamjihatlik va fidoyilik kerak. Prezidentimiz aytganidek, har bir fuqaro "bu – mening uyim, mening mahallam, mening tumanim, mening Vatanim", deb yashasa, natija biz kutgandek bo'ladi.

Anvar SAMADOV,  
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



TAKLIF



# “TURON” JADID KUTUBXONASI bunyod etilsa...

Bahodir KARIMOV,  
filologiya fanlari doktori, professor

**B**ugun ijtimoiy turmush va har bir inson hayotida kitobning tutgan o'rniga ahamiyat berilishi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida” chiqargan farmoyishi juda muhim hisoblanadi. Chunki o'qiganlar bilan o'qimaganlar, oqillar bilan johillar, bilganlar bilan bilmaganlar martabasi hech qachon teng bo'lgan emas.

Shu jihatdan XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarix sahnasiga ilm-ma'rifat fidoyilari sifatida chiqqan jadidlar taqdiri ancha murakkab va nisbatan qiziqarli. Jadidchilik harakati doirasida ko'tarilgan masalalar umummilliy, keng qamrovli, hayotiy, juda zarur va olamshumul edi. Jadidchilik harakatida qatnashgan arboblardan, adabiy shaxsiyatlar, muallimlar, ziyolilarning son-

sanog'i ko'p. Ularning faoliyati o'z davrida qaysidir darajada muhokama qilindi va bu jarayon hali shu kunga davom etib keladi. Biroq jadidchilik harakati tarixi, namoyandalari faoliyati va merosi xususidagi bugungi qarashlar tugal emas, bu tarixiy hodisa hozirga qadar istiqbol, Vatan va millat manfaati nuqtai nazaridan real ilmiy-nazariy bahosini olganicha yo'q. Mu-

nosib baho uchun tarixiy-adabiy manbalar tilga kirishi lozim.

To'g'risi, adabiy-ilmiiy manbalarning tarqoqligi har qanday tarixiy voqea-hodisani aniq, tiniq va batafsil muhokama qilishga imkon bermaydi. Bir asr naridagi jadidchilik harakati tarixini tugal o'rganish uchun sukunat bag'rida jim yotgan manbalarni tiriltirish va so'zlatish lozim. Bu davrga doir tarixiy manbalar haligacha respublikamiz va chet ellardagi kutubxonalarda, ayrim jadidshunos olimlarning uylarida harakatsiz sochilib yotibdi. Agar fidoyi jadidlarning tarixiy xizmatlariga xolis, odil va haqqoniy baho berish lozim bo'lsa, birinchi navbatda ayni hodisaga oid manbalarni – turli tillarda yozilgan kitoblar, turli tillar va yillarda bosilgan noyob gazeta va jurnallarni izlab topish hamda ularni bir joyga jamlash lozim. Chunki manba yo'qolgan joyda tarixni soxtalashtirish, turli taxminlarni ilgari surish jarayoni boshlanadi. Shaxsan men o'qib ko'rgan jadid nashrlarining ahvoli bugun yaxshi emas. Uringan, yirtilgan, yozuvlari o'cha boshlagan, ko'plarini juda ehtiyotkorlik bilan varaqlash kerak. To'g'risi, o'sha no-dir manbalarning ko'pchiligi bugun yo'q

bo'lib ketish arafasida. Ularni kechiktirmay raqamli formatlarga ko'chirish kerak. Jadidchilik harakati manbalari, jadid ziyolilari nashr etgan kitoblar, gazeta va jurnallar uchun maxsus “Turon” jadid kutubxonasini bunyod etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan tashkil etilgan mashhur “Turon” kutubxonasi qisman Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabida faoliyat ko'rsatmoqda. Ammo bu yetarli emas.

Agar shu tarixiy hududga yaqin joyda “Turon” jadid kutubxonasi tashkil etilsa, jadidchilik harakatini o'rganishda bir qancha imkoniyatlar yuzaga keladi.

Birinchiidan, respublikamiz va uzoq-yuqin xorij kutubxonalaridagi jadidchilikka doir gazeta va jurnallardan nusxalar shu ziyo maskanida to'planadi.

Ikkinchiidan, tadqiqotchilarga jadid namoyandalari, ularning merosi, asosiy konseptual yo'li, jadidshunoslikka oid asarlar bilan batafsil ravishda tanishish imkonini paydo bo'ladi.

Uchinchiidan, jadidchilik hodisasini keng ko'lamda barcha qirralari bilan fundamental tarzda o'rganish, uning qiymatiga adolatli, xolis tarixiy baho berish uchun manbalar

ustida sinchkovlik va qunt bilan tadqiqotlar olib boriladi.

To'rtinchidan, bu kutubxona jadidchilikka doir turli ilmiy-amaliy konferensiyalar, jadidlarning ibratli hayoti va ijodiga oid anjuman va tadbirlar o'tkazadigan markazga aylanadi.

Beshinchidan, bu maskanda jadidshunos olimlarning shaxsiy kutubxonalari va arxivlaridan sotib olingan yoki sovg'a etilgan maxsus kitob javonlari paydo bo'ladi.

Oltinchidan, vaqti kelib, “Turon” jadid kutubxonasi ayni hodisani o'rganish bo'yicha xalqaro ilmiy markaz (akademiya) maqomiga ko'tariladi.

Shu va boshqa asoslarga ko'ra bugun “Turon” jadid kutubxonasini qaytadan bunyod etish zarurati bor, menimcha.

**Hayotning mazmuni, vaqtning qadri, davron mohiyati haqidagi quyma fikrlar, hikmatlar va badiiy asarlar bir joyga to'plansa, o'qib chiqishga bir insonning umri yetmaydigan muhtasham kutubxona paydo bo'ladi. Hakim va faylasuflarning vaqt tushunchasiga bergan ta'rifu tavsifi tafakkur tarixida alohida bir bob. Zotan, inson bolasi bor ekan, kiprik uchida g'itillab turgan ko'zyosh miqdoricha nasib qilgan umri davomida ibtidoosiz Azaldan intihosiz Abadga qadar o'tayotgan Vaqt daryosini tizginda solmoqqa urinadi; bepoyon sahroning qum zarralarini hisoblash imkonsiz bo'lsa-da, o'z umrining qumsoati qadar hisobini yuritmoqni istaydi.**

Shu bois ham tarixning dastlabki bosqichlarida Quyoshning chiqishi va botishiga qarab umri sarhisobini yuritgan inson keyinroq zamonning o'lchovi bo'lgan turli me'yor va mezonlarni ishlab chiqdi. Bularning ichida eng muhimi, shubhasiz, taqvim (kalendar) hisoblanadi. Aynan taqvim tufayli bashar farzandlari o'tmish va bugun bilan birga kelajakning ham hisobini yuritadi, o'z faoliyatini baholaydi, rejalar tuzadi.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, taqvim tutish dunyoviy bilimlar hosilasidir. Olimu fozillar, aqida ilmining bilimdonlari Borliqning azaliyligi va abadiyligi to'g'risida asrlar davomida bahs yuritadi. Ammo biror kishi zamonning ibtidosi, tarixning boshlang'ich nuqtasini aniq belgilab berolmaydi. Turli din va e'tiqodlar, millat va elatlar vakillarining vaqt haqidagi o'lchovlaridan bahs yurituvchi “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini ta'lif etgan Beruniyning fikricha, taqvimga qarn – era asos qilinadi. Alloma, jumladan, bunday yozadi: “Era (qarn) bu o'tib ketgan yilning boshidan hisoblanadigan ma'lum bir muddat bo'lib, o'shanda turli aloqatlar va dalillar bilan qandaydir payg'ambar yuborilgan, yoki sha'ni ulug' bir podshoh zuhur qilgan, yoki xarob qiluvchi umumiy to'fon, zilzila va halokatli yer yutish, halok etuvchi vabo va qattiq qahatchilik natijasida biror xalq halokatga uchragan, yoki davlat va hukmdorlik bir xonadondan boshqasiga o'tgan, yoki biror din ikkinchisiga almashgan, yoki osmon hodisalaridan va yerning mashhur aloqatlaridan biror muhim narsa yuz bergan bo'lishi kerak”.

Taqvimlar dastavval davlatchilik va dunyoviy ehtiyoj sabab paydo bo'lgan. Qadimgi Rimda dastlabki taqvimlar soliq va xiroj yig'ish mavsumini belgilash maqsadida tuzilgan. Keyinchalik yangi dinlar va payg'ambarlar bilan bog'liq hodisalar taqvim tartib berishga asos bo'lsa-da, yan-

gi taqvimlar pirovardida davlatning siyosiy irodasi tufayli joriy etilgan. Shu tariqa dunyoda turli taqvim va

lar asoslarini tatbiq etgan, tarixni o'z payg'ambarlari va dinlariga bog'lab talqin qilishga uringan. Jumladan,

Olimjon DAVLATOV,  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

Ikkinchiidan, Iso alayhissalomning tavallud sanasi muqaddas kitoblarda ham, inobatli manbalarda ham aniq ko'rsatilmagan. Bu borada xristianlik tarixi bilan shug'ullanuvchilar orasida ixtilofli fikrlar mavjud. Keng tarqalgan talqin muvofiq, miloddan avvalgi 6-yildan milodiy 12-yilga qadar sanalar Iso Masih tavallud topgan yildir.

Uchinchiidan, birinchi yanvar yilboshi deb belgilangani ham xristianlikka aloqador emas. Qadimgi Rimning mashhur imperatori Yuliy Sezar yulian taqvimini joriy qilganida birin-

1-yanvar (grigorian taqvimi bo'yicha), muharram oyining birinchi kuni (hijriy-qamariy taqvim bo'yicha), etnik xitoylar orasida 10-fevralda (Xitoy taqvimi bo'yicha), shuningdek, Bali oroli aholisi orasida mart oyining birinchi yarmida (Bali Saka taqvimi bo'yicha) bayram qilinadi.

Pokiston Islom Respublikasi birorta taqvimni rasman qabul qilmagan. Ish yuritishda asosan grigorian kalendaristifoda etiladi. Yangi yil bayrami ikki marta – 1-yanvar kuni va muharram oyining birinchi sanasida nishonlanadi.

man nishonlanadi. Keyingi uch-to'rt yilda yangi yilni birinchi yanvarda nishonlash an'anasi asta-sekin ommalashmoqda. Ayniqsa, katta shaharlar – Riyoz va Jiddada 31-dekabr kuni keng miqyosda bayram tadbirlari o'tkazilmoqda. Tashkilotchilarga ko'ra, bu tadbirlar aholiga yaxshi kayfiyat va xursandchilik ulashish maqsadida uyushtirilmoqda.

Umuman olganda, grigorian taqvimi tabiiy va aniq fanlarning taraqqiyoti natijasida bugungi kunda bashariyatning eng mukammal taqvimlaridan biriga aylangan. Astronom olimlar xulosasiga qaraganda, mazkur taqvim bo'yicha 3500 yilda faqat ortiqcha bir kun qo'shiladiki, hozircha u daqiqlik va aniqlikning oliy namunasi hisoblanadi.

Afg'oniston va Erondan tashqari barcha musulmon mamlakatlari ish yuritishda rasman milodiy taqvimni istifoda etadi. Siyosiy-diplomatik, iqtisodiy-ijtimoiy, bank-moliya, madaniy-ma'rifiy munosabatlarni uyg'un ravishda olib borish uchun islomiy davlatlarda ham dam olish kunlari payshanba-jumadan juma-shanba va shanba-yakshanba kunlariga o'tkazilmoqda. Demak, grigorian taqvimi dastlabki diniy ma'no-mazmunidan ancha kengayib, vaqtini tizimlashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi umumjahoniy mexanizmga aylangan.

Yangi yilni nishonlash joizmi-yo'qmi, degan savol har yili ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama bo'ladi. Biz bu masalaning diniy, fiqhiy yechimini ulamolarga qoldirib, bayramning ilmiy asoslarini qisqacha bayon etdik. Takror bo'lsa-da ta'kidlaymizki, mazkur bayram dunyoviy xarakterga ega bo'lib, diniy-sxolastik ildizlaridan ancha uzoqda. Qolaversa, inson o'z umrini qaysi taqvim bo'yicha hisoblashi, qaysi kuni yilboshi sifatida bayram qilishi emas, balki o'tgan bir yil davomida qanday yaxshi amallarni bajarгани, umrining qanchasini ezigulik sarflagani, kimning koriga yaragani muhimdir! Shu haqiqatni teran anglagan odamning, shubhasiz, yutuqlari yutqizqlaridan ko'proq bo'ladi. Ayniqsa, shiddat bilan ilgariib borayotgan bugungi zamonda behuda bahslarga chalg'imag, omonat vaqtini samarali o'tkazish payida bo'lmoq darkor. Akademik shoirimiz G'afur G'ulom lutf qilganidek:

Bebaho damlarning tirik joni biz,  
Har oni o'tmishning yuz yiliga teng.  
Tirik buyuklarning nafasdashimiz,  
Har nafas mazmuni fazolarga teng.

## BAYRAM



muchallar, tarix sarhisoblari urfga kirdi. Misol uchun, grigorian taqvimi bo'yicha 2023-yil deb hisoblaganimiz hijriy-qamariyda 1444, hijriy-shamsiyda 1401, xitoy taqvimida 4720, rus cherkovining Yulian taqvimida 7530, yahudiylar taqvimida 5783-yil sanaladi. Aksar taqvimlarda yil turli fasl va oylarda boshlanadi, binobarin, yilning boshlanishi va tugashi ham bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Ayni paytda, zarofatgo'y adibimiz ta'bir bilan aytganda, “Quyosh barchaga barobar”.

Boya qayd etganimizdek, zamon tizginini qo'lga olish va vaqtini muayyan nizomga solish jarayonida dunyo xalqlari turli e'tiqod va ta'lilot-

nasroniy diniga e'tiqod qiluvchilar insoniyat tarixini ikki bosqich – milodiy va miloddan oldingi davrga bo'lib o'rganadi. Ammo taqvimni Iso alayhissalom tavalludiga bog'lab talqin qilish shartlidir. Aniqroq aytganda, yilboshi payg'ambarning tavallud kuniga bog'liq emas. Bunga bir nechta dalilimiz bor.

Avvalo, biz bugun milodiy yo masihiy deb bilganimiz grigorian taqvimida qo'llanadigan aksar oylar etimologiyasi Qadimgi Rim va Yunon xudolari va podshohlari nomiga borib taqaladi (iyul – Yuliy Syezar, avgust – Oktavian Avgust va, hokazo). Ya'ni ularning nasroniy diniga hech qanday aloqasi yo'q.

## KIMNIKI?

Mulohaza

chi yanvarni yilning ilk kuni sifatida belgilaydi. Mazkur taqvim miloddan avvalgi 45-yil, ya'ni Iso alayhissalom tavalludidan yarim asrcha oldin tuzilgan inobatga olinsa, “Birinchi yanvar – nasroniy taqvimi yilboshisi”, degan fikr biror ilmiy yo tarixiy asosga ega emasligi ma'lum bo'ladi.

To'rtinchidan, xristianlar o'z taqvimini Iso Masih tavalludiga bog'lab talqin qilsa ham, payg'ambarning tavallud kuni nasroniylikning biror mazhabida yanvarning ilk kunida nishonlanmaydi. Katolik va protestantlar 25-dekabrni Iso alayhissalomning tavallud kuni (Christmas) deb bilsa, Rus pravoslav cherkovi 7-yanvar, arman cherkovi esa 6-yanvarni Rojdestvo bayrami sifatida nishonlaydi.

Yangi yil bayrami bizga Rossiya orqali kirib kelgan. Rus tarixida yangi yil turli davrlarda 22-dekabr (yaldo – eng uzun kecha), 22-mart (tun va kun teng bo'lgan Navro'z ayyomi), 1-sentabr (Vizantiya taqvimi bo'yicha) sanalarida bayram qilingan. Pyotr Birinchi davrida yangi yilni Yevropa xalqlari bilan bir vaqtda nishonlash maqsadida taqvimga tahrir kiritilgan va birinchi yanvar yilboshi deb belgilangan.

Musulmon Sharqi davlatlarida bugungi kunda yangi yil bayrami turli sanalarda nishonlanadi. Masalan, Indoneziyada asosan grigorian taqvimi ishlatilsa-da, islomiy taqvimdan ham keng foydalaniladi. Mamlakatda yangi yil bayrami bir necha marta –



# UCHINCHI RENESSANSNING MILLIY POYDEVORI



Hamidulla BOLTABOYEV,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Dunyo hamjamiyati tarixida Renessans – Uygʻonishning ahamiyati mislsiz ekanligini barcha ziyolilar yaxshi biladi. Jahon tamadduniga Islom Renessansi (Adam Mes) nomi bilan kirgan olamshumul voqeaning asosiy markazlaridan biri – hozirgi Oʻzbekiston boʻlgani yurtimizning har bir ziyolisini faxrlantiradi va buning barobarida ulkan tamaddunga voris boʻlish masʼuliyatini yuklaydi.**

**B**IRINCHI RENESSANS poydevori islomiy tamaddun, ilm va adabiyot sanalib, jahonga Imom Buxoriy, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi yuzlab jahoniy allomalarni yetkazib berdi. IKKINCHI RENESSANS esa Amir Temur dahosi bilan yurtimizda markazlashgan davlatning vujudga kelishi tufayli Mirzo Ulugʻbek va Ali Qushchi, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olimu adiblarni yetishtirgan boʻlsa, UCHINCHI RENESSANS haqli suratda jadid bobolarimizning siyosiy, iqtisodiy qarashlari, madaniy va adabiy voqelikni yangilash, uyqudagi yurtini uygʻotish bilan bogʻliq boʻlganini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday sharhladi: **“Oʻylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin boʻlgan mintaqamizda uchinchi Renessansi aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning egzu gʻoya va amaliy harakatlari toʻla roʻyobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan maʼnaviy kuch-quvvat olamiz”.**

Markaziy Osiyoda keng quloq yoygan oʻzbek jadidchilik harakati yangi tamaddunning milliy poydevorini yaratish uchun hayotning har bir jabhasida islohotchilik harakatini boshlab yubordi. Professor Temur Xoʻja oʻgʻli jadidchilik harakati oʻzidan toʻqqiz ulugʻ gʻoyani meros qilib qoldirganini taʼkidlab oʻtgan. Ular orasida eng boshlangʻichi va masʼuliyatli milliy oʻzlikni anglash gʻoyasidir. Millat oʻzining kimligini va jahon hamjamiyatidagi oʻrnini yaxshi bilmas ekan, oʻzligini namoyon etish yoʻlidagi har bir harakati samara bermasligi mumkin. Shuning uchun ham Abdurauf Fitrat domla “Himmat va saboti boʻlmagan millatning haqqi hayoti yoʻqdir” soʻzlarini sarlavhaga olib chiqadi. Himmat, avvalo, oʻz yaqinlariga, millatdoshlariga va dindoshlariga nisbatan mehr-oqi-

bat koʻrsatishdir. Ularning tashvishi bilan yashash, dunyoda borligini namoyon qilish uchun kurash va dunyo jamiyatidan oʻz oʻrnini topish uchun qilingan harakatdir. Sabot esa mana shu ilmiy-adabiy-maʼrifiy harakatlarning izchillik bilan amalga oshuvi uchun tinimsiz mehnatdir. Oʻzini, oʻzligini bilmagan millat hayotga, yashashga haqli emas.

Jadid oʻtalarimiz bizga faqat gʻoyanigina meros qilib qoldirgan yoʻq, balki bu olamshumul gʻoyalarni amalga oshirish uchun harakat dasturini ham yaratib ketdilar. Bu dasturga muvofiq tarzda izchil kurash yoʻli sifatida islohotchilik takomilini yaratdilar. Islohotlarning yuzaga kelishi milliy zaminda anʼanaviy maktab va madrasa taʼlimi, mumtoz adabiyot namunalari jiddiy suratda qayta nazardan oʻtkazish jarayonida kechdi. Bu yoʻlda jadidchilikning maʼnaviy rahbari Ismoilbek Gʻaspirali Bogʻchasaroyning Zanjirli madrasasida amalga oshirgan islohot tajribasiga tayandilar. Millatning asosiy qismi musulmon farzandi boʻlgani uchun ham ilk islomiy bilimlarni berishga harakat qildilar. Bu yoʻlda Mahmudxoʻja Behbudiy “Muxtasar islom tarixi” (1913), Abdulla Avloniy “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” (1913), Abdurauf Fitrat “Muxtasari taʼrixi islom” (1915) va boshqalarning boshlangʻich maktablari uchun yozgan muxtasar islom tarixlari arziqli qadam boʻldi.

Bunga qadar maktab islohoti masalasi jadidchilar amaliy faoliyatdan boshladilar. XIX asrning soʻngida Ishoqxon toʻra Ibrat, yangi asrning ilk sanasida Toshkentda Munavvarqori, Samarqandda Abduqodir Shakuriy, Andijonda Zahiriddin Aʼlam va boshqalarning usuli jadid maktablari ochildi. İlk usuli jadid maktablari 1890-yilda Fargʻona vodiysida va 1893-yilda Samarqand shahrida ochildigan edi. 1910-yillarda Turkistonda 80 ga yaqin, Buxoro amirligi hududida esa 57 ta yangi usul maktabi faoliyatini boshlagan. Bu maktablar uchun tizimli dastur, oʻquv adabiyotlari zaruratini toʻgʻri tushungan allomalar Avloniy, Saidrasul Saidaziz, Munavvarqori,

Behbudiy, Fitrat, Hamza va boshqalarning ilk maktablar uchun yozgan darslik va qoʻllanmalari nashr etildi.

Jadid adiblari badiiy adabiyotda jahon andozalari darajasida qabul qilinadigan asarlar yozishga kirishdilar. Yangi adabiyot, bir tomondan, mumtoz adabiy janr va obrazlar doirasida shakllangan boʻlsa, ikkinchi tomondan, davr voqealarini aks ettirgan oʻziga xos oyna vazifasini bajardi. Adabiyotda “millat” va “vatan” tushunchalari faollasha boshladi. Agar tarixan “millat” soʻzi islom ummatiga nisbatan qoʻllanilgan boʻlsa, endi adabiyotda bemaol qoʻllanilish davriga kirdi. Fitrat 1911-yilda “Sayha” (“Naʼra”) toʻplamini “milliy sheʼrlar” deb atagan boʻlsa, Hamza “Yangi saodat” asarini “milliy roman” deb atadi. “Vatan” tushunchasining qamrovi kengayib, endi hududiy maskan, maʼmuriy birlik doirasidan “maʼnaviy vatan” sari kengaydi. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Qodiriy publitsistikasi milliy gʻoyalarning jarchisiga aylandi.

Milliy sheʼr masalasi nafaqat asarlarning mazmun-mundariyasi asosiga qoʻyildi, balki “milliy shakl”, “milliy uslub”, “milliy vazn” istilohlari ham faol qoʻllanila borib, “bizning milliy vaznimiz” (Fitrat) hisoblangan barmoq vazni sheʼriyatda qatʼiy oʻrinni egalladi. Jangovar publitsistik ruhdagi sheʼrlar lirik janrlar gʻoyaviy mundariyasini boyitishi barobarida, harbiy marshlar ham milliy sheʼrlar asosi-

ga qurildi. Sheʼrdagi liro-epik qamrovning kengayishi natijasida milliy dostonchilik shakllandi (Fitratning “Sharq”, Choʻlponning “Buzilgan oʻlkaga” deb nomlangan sheʼrlari “poema” ruksida eʼlon qilindi).

“Roviylar andoq rivoyat qilurlarkim...” tarzida boshlanadigan qissaxonlik asosiga qurilgan mumtoz nasr oʻrnida realistik hikoya, qissa va romanlar vujudga keldi. Zulmatdan nurga intilish, maʼrifatni targʻib qilish, real hayotning bir parchasini asar bagʻriga singdirish Qodiriy, Choʻlpon hikoyalarning janriy asoslarini belgiladi. Fitratning “Munozara” qissasidan boshlangan jadid maktablari targʻiboti “Hind sayyohi bayonoti” asarida keng epik planga koʻchdi. “Roman uslubida yozilgan” (Sadrididdin Ayniy) bunday asarlardan tez fursatda milliy romanchilik sari qadam tashlandi.

Drama adabiy tur sifatida shakllanibgina qolmadi, balki oʻz borligini ifoda etadigan milliy teatrga zamin yaratgan truppa (dasta, toʻda) shakllanib, keyinroq professional teatr madaniy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Oʻz hayotini “Padarkush” asaridan boshlagan oʻzbek dramaturgiyasi tez orada oʻnlab turli yoʻnalishdagi dramatik asarlar bilan boyidi.

Bir muallif tomonidan yozilgan badiiyat namunalari xalqqa yetib borishi uchun milliy matbaa shakllandi. Xorazmda ish boshlagan milliy matbaachilik Ibratning “Matbaai Ishoqiya” (1908), Behbudiy matbaasi (1910–1912)



## YUZ YILNING QANOTIDA JADID KULLIYOTI

### KUTUBXONA

**“Zabarjad Media” nashriyoti tomonidan “Jadid kulliyoti” deya nomlangan turkum kitoblar nashr qilindi. Eʼtiborli jihati, ushbu asarlar 100-110 yil avvalgi ilk nashridan buyon biror marta kitob holda chop etilmagan edi. 8 kitobdan iborat ushbu toʻplam jadid bobolarimiz merosini oʻrganishda noyob manba boʻlib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.**

1. “Jadid kulliyoti”ni “Sabzazor” toʻplami boshlab beradi. Bayoz hijriy 1332, milodiy 1914-yil 22-avgustda Toshkentda, Ilin bosmaxonasida nashr qilingan. 49 sahifadan iborat ushbu toshbosma kitobni Munavvarqori hazratlari toʻplab, nashrga tayyorlagan. Toʻplam anʼanaviy basmaladan boshlanadi, idora nomidan hamd va naʼt keltiriladi. Soʻng Vasliy, Soʻfizoda, Avloniy, Xislat, Tavallo, Ajziy, Xolid Said, Miskin, Hamza, Mirmulla, Ahqariy, Afandixon, Laylixonim kabi ijodkorlarning tahririyatga yoʻllagan tabrikklari va milliy mavzudagi gʻazal, muxammas, musaddaslar beriladi, soʻng xotima bilan yakun topadi. Kitob jadid ziyolilari taʼsis etgan “Sadoyi Turkiston” gazetasi sahifalarida eʼlon qilingan materiallar asosida, bayoz shaklida tartiblangan boʻlib, “Sadoyi Turkiston”ga yoʻllangan tabriklar va milliy hushyorlikka undovchi sheʼrlar jamlangan. “Sabzazor” boshdan oxir millatga, xalqqa murojaatdan, milliy ogohlikka daʼvatdan iborat.

2. Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nodir qoʻlyozmalar boʻlimida “Oʻzbek yosh shoirlari” nomli noyob bir kitob saqlanadi. Bu sheʼrlar toʻplami 1922-yil Toshkentdagi “Turkiston

davlat nashriyoti”da chop etilgan boʻlib, 105 sahifadan iborat. Mana shu moʻjaz kitob Turkiston xalqlari uchun bir yorugʻlik, bir najotdek qabul qilingan. Toʻplamda Fitrat, Choʻlpon, Elbek, Botu sheʼrlari berilgan.

3. Uygʻonish maʼrifati – uygʻonish ogʻriqlariga tob berishdir. Choʻlponning “Uygʻonish” nomli ilk sheʼriy toʻplami milliy uygʻonish maʼrifati, milliy ogʻriqlar haqida. U 1922-yil Toshkentda Turkiston jumburiyatining davlat nashriyotida chop etilgan. Kitob besh qism, yaʼni besh fasldan iborat: Yurt qaygʻusi; Umid va imon; Choʻrilar uchun; Sezgil; Sevgi. İlk fasl Fitratning butun Turkistonda yigʻilgan va yuragiga oʻt solgan “Yurt qaygʻusi” sochma sheʼrlar turkumi nomi bilan ataladi. Choʻlpon 100 yil avval “Yozilmogʻonmi bu tunlar soʻngida tong otmogʻ?” deya hayqirgan edi. Tong otdi, ammo bu sheʼrlar bugun ham yuragimizni yoqadi, MILLIY MAʼRIFAT va MILLIY HUSHYORLIKka daʼvat etadi.

4. “Kulliyot”dagi toʻrtinchi kitob – Choʻlponning “Buloqlar” toʻplami dastlab 1923-yilda Turkiston davlat nashriyotida chop etilgan. Kitob muhtasham “Xamsa” kabi besh qism, yaʼni besh fasldan iborat:

Sharq uchun; Sezgil; Sevgi; Qora yoʻllar; Qor qoʻnida. Birinchi fasl bevosita ijtimoiy-siyosiy mazmundagi sheʼrlar bilan boshlansa, keyingi fasllarda “Uygʻonish” toʻplamidagi ikki fasl nomi aynan saqlangan: Sezgil; Sevgi. Bu fasllar qadimgi nomlanmasin, ularning barchasida dard sirqirab turadi.


5. “Kulliyot”dan joy olgan “Goʻzal yozgʻichlar” kitobi “boshlangʻich maktablarning toʻrtinchi boʻlimlari uchun tuzilgan oʻqush kitobi” boʻlib, Elbek tomonidan tartiblangan va 1925-yil Oʻzbek davlat nashriyotida 5000 nusxada chop etilgan. Unda Abdulla Avloniy, Fitrat, Choʻlpon, Botu, Abdulla Qodiriy, Vadud Mahmud, Saidali, Mirmuhsin Shermuhammad kabi mualliflarning boshqa bor toʻplamga kiritilmagan nasriy, sheʼriy asarlari jamlangan va millat bolalari uchun yoʻllangan.

6. “Adabiyot parchalari” ham talabalar, oʻqitgʻuchilar va umuman adabiyot sevgichilar uchun Abdulhamid Sulaymon hamda Ashurali Zohiriy tomonidan tartiblangan darslik-majmua boʻlib, 1926-yil Oʻzbekiston Davlat nashriyotida chop etilgan va qayta nashr yuzini koʻrmay unutilgan. Garchi bu kitoblar boshlangʻich maktablar oʻquvchilari, talabalar, oʻqituvchilar

uchun, deyilsa-da, aslida, butun bir millatga yoʻllangan, hurriyat va maʼrifat ruhi bilan sugʻorilgan kitoblar edi.

7. “Ulugʻ Turkiston” toʻplamidan shu nomdagi gazetada bosilgan adabiy materiallar va gazetaning izohli bibliografiyasi oʻrin olgan. “Ulugʻ Turkiston” gazetasi 1917-yillardagi nafaqat Turkiston, balki butun turkiy xalqlar hayotida sodir boʻlgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy uygʻonish natijasi oʻlaroq oʻzbek va tatar ziyolilari hayotida yuzaga chiqdi. Gazeta qisqa vaqt mobaynida (1917-yil 25-apreldan 1918-yil 30-noyabrgacha) nashr etilgan boʻlsa-da, oʻz oldiga qoʻygan maqsad va maslaji bilan Turkiston ziyolilarini birlashtira oldi.

8. “Kulliyot”dan joy olgan soʻnggi kitob “Ichkari” nomli toʻplam boʻlib, bu Choʻlponning bugunga qadar tadqiq etilmagan noyob tarjima kitobidir. Kitob muallifi Lola Sayfullina oʻz davrining taraqqiyparvar, ziyoli ayollaridan boʻlib, matbuot ishlarida faol ishtirok etgan. “Ichkari” 1926-yil Oʻzbekiston Davlat nashriyotida eski oʻzbek yozuvida nashr etilgan. Kitobga “Oʻzbek xotin-qizlari turmushidan olingʻon sochma sheʼrlar”, deya izoh berilgan. Oʻzbekchaga mutarjim Choʻlpon deya koʻrsatilgan.



Kulliyotdan joy olgan kitoblarning barchasi ham Oʻzbekiston kutubxonasi, fond va arxivlarida mavjud emas. Bori ham bir-ikki dona, uning ham bir nusxasi butun boʻlsa, boshqa nusxasi muqovasiz, yirtilgan, kuygan bir holatda. Oʻzimizniki boʻlgan bu kitoblarning ayrimlari xorij kutubxonalaridan topildi va shu tariqa joriy yozuvga oʻtkazildi. Ular ilk bor nashr etilgan 1917, 1922, 1923, 1925, 1926-yildan buyon qayta nashr yuzini koʻrmagan edi. Biz bu kitoblar tilini hozirgi tilimizga majburiy moslamadik. Zotan, jadid adabiyoti va uning sayroq tili yuraklarimizda oʻz muhtasham ohangi bilan yangrab, mavjlanib tursin.

Shahnoza IBODULLAXON qizi



## YURT QAYG'USI



Mahmudxo'ja BEHBUDIY

Millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lib, tub sababi ulamo ila ag'niyoning hammiyyat va g'ayratlaridir. Taraqqiy qilg'on va yo endi taraqqiy qiluvchi millatlar ahvorig'a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o'z millatlariga so'z va oqcha ila xidmat etganlari favran zohir bo'lar.

Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o'z millatining oyandasi uchun yo'li ko'rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, maktab va madrasalarda dunyo va oxiratda kerak ilm va

fan, ta'lim berarlar, kitob va gazet ila ummatni muslihi uchun bahs va mukolamalar qilurlar.

Taraqqiy qiluvchi millatlarning ulamosi zamondin boxabar bo'lib, o'z millatining "masoliha zamoniyya"si uchun sa'y etar, millatni peshraftig'a oqcha ila, hayrat ila iona qilmoqni millat boylariga taklif etar, tashviq va tahrir etar. Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so'ylar, yozar va havoiji milliy va zamoniyan o'z millat mansubasig'a bildirarlar. Zamona ag'niyo-lari o'z millatlarini zamoniycha kerakligi yo'linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamonaviy maktablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamog' uchun harakat etarlar.

Hukumatni o'rta va oliy maktablariga o'qiydurg'on o'z millat bolalariga ionat etarlar.

Va bechora hamjinslarini diniy va dunyoviy maktablariga berub, o'z xarajatlari ila o'qutadurlar.

Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o'z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunin, Qafkoz, Qirim, Qozondaki musulmon birodarlarimizni boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o'z birodarlariga mol, oqcha, qalam va ilm ila ko'b iona qiladurlar.

Ammo bizni Turkistonda bu ishlardin so'ylamoqqa hanuz navbat kelgan yo'q. Har kim o'z naf'i va o'z shaxsiy ishi ila sargardon, umumiy yoinki diniy va milliy ishlarni namoyandasi uchun, millatning zamona odamlaridek taraqqiy etmog'i uchun, xaloyiqning isloh axloqi uchun g'am tortuvchi va harakat etguvchi yo'qdir.

Bir karra diqqat qilib,

mahalla-ko'y va qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko'paygan. Biz musulmonmiz. Musulmonlikg'a ilm lozim, amal lozim. O'qumog' kerak, nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q?

Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobe'dur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lar, musulmonlik, ilm va odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur.

Bugun islohi maktab-madrasa, ya'ni islohi millatg'a ko'shish qilinmasa rabi asr so'ngra diyonat barbod bo'lar va aning javobi mas'uliyati bugungilarg'a qolur, bu mas'uliyatdin qutulmoq


uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlar o'qumog' uchun targ'ib qilmoq kerakdur. Diniy ilm va fanlarning o'rni maktab va madrasadur.

Dunyoviy fanlarning o'rni hukumat maktablaridur, ikkisig'a o'qumog' uchun oqcha lozimki, ul oqcha boylarni kissayi hamiyatidan chiqsa kerak.

Har zamon uchun asbobi isloh va taraqqiy ionat boshqarur. Millatg'a ionat etmoq uchun, islohi maktab va mudarris uchun bola tayyorlamog' uchun, dehqon va san'atkorlarni rivoj bermoq uchun "hamiyyati xayriya", "nashri maorif", qiroatxonalar, fo'ndlar, kurujuklar, jaridalar, majallalar, nashriyotlar... kerakdur. Millatlar taraqqiyi shul ila bo'lar va bu ishlarg'a oqcha kerakdur, oqcha boylarda va afrodda!

"Samarqand" gazetasi, 1913-yil, 30-iyul.

## GO'ZAL YOZG'CHLAR



Ablulhamid CHO'L PON

## Barg

Jonlandi, yashardi, ko'kardi qarashim, O'zimda bir turli erkinlik sezamen. Ko'nglimda qolmadi shu tinda

g'am-g'ashim, Umidning ipaklik qilini cho'zamen. Shu chog'da, shu bog'da har narsa yumshoqdir,

Har narsa ko'kargan, har narsa yashnaydir. Shu bog'da, shu chog'da har narsa oppoqdir,

Quyosh-da nurini hovuchlab tashlaydir. Ariqda suvlarning o'ynoqi qo'shig'i Shoxlarda uxlagan barglarni uyg'otdi. Ayniqsa, shamolning u yumshoq

sho'xligi

Shoxlarda barglarni titratdi, o'ynatdi. Qip-qizil qanotli kapalak, yo'lida Uchratdi chiroyli chizanak qizini, Kapalak tikilgach, u qizcha qo'lida Ushlagan yaproq-la berkitdi yuzini. Oltinli qo'ng'izni bolalar ushlab, Ip bilan ko'klarga uchirib o'ynaylar. Qullikni sevmagan yo'qsilni

kuchlashib, Nimaga o'zining erkiga qo'ymaylar. Lablarim shu tunda chanqag'an, qizarg'an.

Kavsarning suvidan sharoblar istamas.

Farishta qiliqli, malika qizlardan Chanqoqni bosuvchi bir o'pich so'ramas. Ko'klardan malaklar qiz bo'lib tushsalar.

Yana men o'tlarni qo'ynimga qo'ymaymen.

Qo'ynimga to'lsalar, qo'ynimdan toshsalar

Gullarning hidlari... Men sira to'ymaymen.

O'pmaymen shu chog'da farishta - malakni,

O'pamen butoqda titragan bir bargni...

## Binafsha

Yoz qayg'usi. Binafsha senmisen, binafsha senmi, Ko'chada oqchaga sotilgan. Binafsha menmanmi,

binafsha menmi, Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay, Bir erkin kulmasdan uzilding?

Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay, Yertlarga egilding, cho'zilding?

Binafsha, Ayt menga, Kimlardir ular, kim

Ignalar bag'ringga sanchalar? Binafsha,

Bir so'yla, U qanday qo'llar, kim

Uzalar, hidlaylar, yancharlar? Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,

Nimaga uzoqroq kulmaysen? Binafsha, shunchalar tortguvchi

tusing bor, Ko'nglimga erkinlik to'kmaysen?

Binafsha, yig'lama, binafsha, kel beri, Qayg'ingni qayg'umg'a qo'shg'il,

Binafsha, seningchun ko'kragim: erk eri,

Bu yerdan ko'klarga uchg'il!

Binafsha, go'zalim, qayg'ilm kelmaysen, Qayg'ing zo'r, qayg'imni bilmaysen,

Menga bir kulmaysen!..

1922-yil.

## ABDULLA AVLONIY



## O'z maishatimizdan

Ko'b qiziq bul jahonni savdosi, Ko'rurur rang-barang tomoshosi.

Har yera borsa, so'zi maqbuldir, Kimni bor bo'lsa nuqra, tillosi.

Gar faqir o'lsa ochligidankim, Bo'lmag'ay boyni zarra parvosi.

To'y qilub, osh berur g'aniylarg'a, Kambag'al kirsra "hayda-haydo"si.

To'n berur ag'niyo imomlarg'a, Kambag'al parcha nonni shaydosi.

Sarf etar to'yg'a pulni ming-minglab, Yo'q xayolinda maktab inshosi.

Ilm uchun pulni ko'zlari qiymos, Kim bilur, bormi-yo'qmi foydosi.

Jumlasi boyni so'zini aydur, Xohi eshon-u, xohi mullosi.

Ilmdan istasang, nishon yo'qtur, Boshida bor qozoncha sallosi.

Xalqqa bir pulcha qimmatini yo'qdir, Har kiming bo'lsa ilmi donosi.

Tong otur, kun botur, o'tar davron, Yo'qtur millatni zarra bolosi.

Har kishi o'z maishatin istar, Kimga lozim malolni g'avg'osi.

To'g'ri so'z tuv'g'onig'a yoqmaydir, Bu so'zumdir zamon taqozosi.

Ko'rdimu borcha manfaat millat, Ey, zamonning adibi a'losi.

Jam'iyat majlisina bormaslar, Yo'qtur yog'lu palov, nishollosi.

Ey ko'zim, qon to'k, og'la, Hijron bo'li, Ishta millatga buldur avlosi.

## Nima kimniki?

Xo'ja xoru, so'z hama bandoniki, Oqcha pullar sohibi jandoniki.

Nega xomush o'lding, ey aqli xirad, Bo'ldi dunyo kori sharmandoniki.

Shirkat aylab, arbakash ham bo'lmadur, Har kuni minglarcha so'm ko'noniki.

Nasya olub, sut ichodur bizni xalq, Maska, qaymoq fabriku bankoniki.

Bo'lmasa moyi g'ijiraydir o'qi, Barcha ishing mehvari tangoniki.

Gar faqir o'lsang demas holing nadur, Mehribonlig' oltun-u dengoniki.

Eski to'n bo'lsang, bo'lursan xoru zor, Izzatu hurmat to'ni yangoniki.

Ilmdan boylik yuqorida turur, Suhbatu majlis silliq salloniki.

Ilm uchun bir pulni qiymos ko'zlari, Resto'ronda tangalar yalloniki.

Chashmimizni bosdi g'aflet pardasi, Tayanchu rohatu ko'zlari binonnikim\*.


Soddalik bozori bo'ldi xo'b kasod, Sud qilmoq mahkamu dononiki.

Kamchilikni nazm ila taqdim etar, Ishta bu Hijron degan ustoniki.

\*Binon — ko'rish.

Kimki o'z insonlik darajasini asl holatidan taraqqiy qildirsa, bu uning insonlik olamiga kirishidir. Hakimlar uni INSON ataganlar.

Abdurauof Fitrat



Maqsad va Amal.

Iskandariy, 1917-yil 1-iyun

"Azman o'zgarub xarobalarda yangi hayot ochiladur!" ...Bu bir eski haqiqat! Bu eski jahoncha eski, izli va abadiy qonundur.

Har zamon, har makonda hayot malul bu qonung'a tobe'dur. Tobe' bo'lgusi kelmaganlar, tarix shohid-durki, mahv bo'la kelganlar va mahv, munqariz bo'lmoqg'a mahkumdur-lar. Bizning qoshimizda taxminan bundan o'n, o'n besh yillar avvalda bir hayot masalasi qo'zg'aldi; u eski-cha eskilikni taqdis va tahfiz etmak yoki Ovro'po va rus madaniyatini qabul etib, tarixdan yangi bir davr ochmoq masalasi edi. Biz masalani Ovro'po madaniyatini qabul ma'no-sida hal etdik. Bu sababdan yangi usul maktablar, qiroatxonalar, ki-

tobxonalar, gazeta idoralari, mat-baalar, jamiyati xayriyalar va maorif ochdik. G'aflet daryosig'a botgan bu xalq ichida ilm va maorif va afkori jadidi ta'mimig'a xizmat etdik. Va aytadurmiz, faqat bu zamong'acha xizmat va faoliyatimiz e'tirof etmak vojibdurki, nihoyat darajada oz, oz va ozdur. Lashkari jaholat yiqilg'on, faqat yengilgani yo'q, ishni itmom etmak kerak, vaqtan istifoda etib dushman (jaholat)ka omon va o'zini to'blamoq uchun imkon bermasdan muttasil urishmoq, bir zarba orqasidan darhol ikkinchi zarbani sol-moq vazifamizdur. Ul zarbalarning eng qattig'i va biz uchun mufigdilaridan biri shubhasiz matbuotdur.

Abu Nasr Forobiy, Ulug'bek, Imom Buxoriy, Navoiy, Temur va Boburshohlarg'a o'xshash nomlari bilan shoyon iftixor; ulamo, faylasuf, shuaro, fothlarning ibratlik faoliyat-

## MAQSAD VA A'MOLIMIZ

Eskilik vayron bo'lib, azman o'zgarub xarobalarda yangi hayot ochiladur.

SHILLER

laridan, g'ayratlaridan, fidokorliklari-dan tariximiz, xarobalarimiz va osori atiqalarimiz har biri shahodat berib turur. Biz esak mabzul, miskinul afkor, mahdudul afoq, faqir va tan-bal bir hayot kechirmakdamiz. Ham hozirgi kunda muhim va tarixiy vo-qealar oldida turamiz.

Mana endi "Yurt" vositasi birla hozirgi yangi hukumatning fikri bilan yurtimizni, elimizni tanishdirub, yurt va elimizning taraqqiy va taoliysig'a sa'y va ijihod etmakchimiz, o'z maromnomamizni diqqat va nazari oliylaringizga taqdim etsak: "Yurt" doim bir hur, minbari haqiqat bo'la-durki, andin har bir xulusi niyatlik mujohidi jaholat o'z fikrini, loyihisini millatka arz etmakka haqqi bordur...

"Yurt" tahririyati (1-son, 1917-yil 1-iyun)

## Abdulla QODIRIY

## Ahvolimiz

Ko'r bizning ahvolimiz, g'afletda qanday yotamiz, Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulg'a sotamiz. O'g'limizg'a na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak, Na xudoni buyrug'ib bo'lgan ulum o'rgotamiz. Korimiz shundan iborat bo'ldi ushbu vaqtda, O'tadind bedona boqib yozu qish sayrotamiz. Hamda har kun takyalarida nasha ko'knori chekib, Bachchag'a kokil solib, oh-voh ila o'ynotamiz. Qarimiz, boyonimiz, balki bu vaqt ogvondamiz, Nogahon ko'rsak agar bir besoqolni qotamiz. O'tadind chiqsa agar millatni yaxshi suyguchi, Biz ani dahriy sanab, to'fangcha birla otamiz. Kelingiz yoshlar, ziyolilar bu kun g'ayrat qiling, Uxlaganlarni agar qodir esak uyg'otamiz.





# AN'ANALAR ETADI DAVOM

**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkaziladigan Respublika yosh ijodkorlarining an'anaviy Zomin seminarida mamlakatimizning turli hududlarida ijod bilan shug'ullanib kelayotgan yoshlar ishtirok etib, ustozlar saboqlaridan bahramand bo'lib kelmoqdalar. Ushbu seminarda faol qatnashib, ijodi ustozlar tomondan e'tirof etilgan hamda "Birinci kitobim" loyihasiga tavsiya qilingan yoshlarning ijod namunalari har yili ushbu loyihada ko'p ming nusxada chop etiladi.**

**Yaqinda ana shu baxtga muyassar bo'lgan 25 nafar yosh ijodkorning ilk kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi.**

**Quyida yosh ijodkorlarimiz asarlaridan namunalar taqdim etilmoqda.**



Mavluda BOYCHAYEVA

## Qutlug' diydor

Xirgoyisin boshlar avtobus,  
Qo'lin silki qoladi qishloq.  
Oq soqolli tog'lar duoda  
Qirlar deydi: "Yo'ling bo'lsin oq".

Chorlayapti meni Samarqand,  
Safar xaltam to'la mushtoqlik.  
Zavq chaynaydi tinmay yuragim,  
Xayolimning hamyonchasi liq.

O'ng yonimda hamroh deraza,  
Tabiatni boraman chizib.  
Ko'kda oppoq qanotli otlar  
Uchib emas, yurganday suzib...

Norozilik yo'qlaydi gohi,  
Imillaysan, avtobus, nechun?  
Bilmaysanmi otlanganimni  
Sohibqiron diydori uchun?



Munisa A'ZAMOVA

## O'rik guli

O'rik guli – mening gulim,  
Mening gulim – mening dilim.  
Ishonmaysiz, ana qarang,  
Gullagan-ku, men bergan rang.  
Men bergan rang ko'nglimday oq,  
ko'nglimday oq.

Yurakkinam araz qildi,  
Nasihatim g'araz bildi.  
Tuni bilan uchqun sochib,  
Tong hovlida quchoq ochib  
Arazlarim kular oppoq,  
kular oppoq.

Sodda daraxt qaydan bilar,  
"Mevangman", deb tursa bular.  
Aylanadi yomon shumga,  
To'kiladi yo boshimga.  
Shamollarda qolsa mudroq,  
qolsa mudroq.

Yaqin qoldi dovcha sayli,  
Hovlimizga kelsin mayli  
Yo'li, ko'ngli tushsa kimning.  
Mevasi-da arazimning –  
Ayblamaysiz sal nordonroq,  
sal nordonroq.

Erkin HOJIMUHAMMAD



## Dada

Bebosh yoshligimdan qalbdan bir iqror:  
Tog'day tayanch berdi, shukurki, hayot.  
Rahmat keltirmagan bo'lsa-da bir bor...  
Dada – o'g'lin o'ylab ichi kuygan zot!

Qora ishlarga ham berib kelgan zeb,  
Dala-uy.  
Dala-uy.  
So'ng yana ishga.  
Tag'in faxrlanar:  
– Ota bo'ldim, – deb,  
Mendayin devona, telba darveshga!

Shaharda yuraman ko'ksimni kerib,  
Qishloqda g'amxo'r zot g'amimni yeydi.  
O'zining baxtini o'g'liga berib,  
– Bolam baxtli bo'lsa, bo'ldi-da, – deydi!

Faqat farzandi deb kuydiradi jon,  
Darrov bajarilar hamma va'dalar.  
Mening dadam, balki, juda mehribon,  
Balki, mehribondir barcha dadalar.

Umri uzoq bo'lsin,  
Yetmay biror kor,  
Ketmasin quvvati jismu tanidan.  
Bir umidim shulki, yo Parvardigor,  
O'zim hassa bo'lay qariganida...



Mansur NAZAROV

\*\*\*  
Gulning yuzidagi shabnammas sira,  
Uning ko'z yoshlari sochilib ketgan.  
Tun bo'yi yig'idan qizarib ko'zi,  
Oyning nurlarida ochilib ketgan.

Atirgul poyini o'par kapalak,  
Jonsiz qanotlarin tuproqqa to'shab.  
Yuragi zulmatni ko'tarolmapti.  
Yotar o'xshamagan she'rimga o'xshab.

G'ijim qog'ozdagi o'sha so'zlarim  
Senga atalgandi, azizam, bilsang.  
Sevgimiz qadriga yetardik balki,  
Kapalak bo'lsam-u, atirgul bo'lsang!

## Qismat

Hovlimizda gullagan o'rik bugun Bayramga otlangan o'smir qizdek biram shodlanadi. Uni yasantirib qo'ygay tabiatning qo'li gulda. Shamol sho'x yigitdek o'rigoyning gulbarglaridan tortqilab-tortqilab qo'yadi. Bahor havosidan to'yib-to'yib nafas olaman. Shu payt o'rik shohida ilhom farishtasini uchratib qoldim. Uni xonamga taklif qildim. Derazamdan uchib kirgan bu mitti farishta endi mening mehmonim.

Uzoq suhbatdan so'ng oq qog'ozga quyoshning nurlaridek to'kila boshlayman. Och qolgan odamdek ijodga talpinaman. So'nggi nafas olayotgandek shoshib yozaman. Go'yo ona bolasini mehrlaning quchog'ida allalagan kabi, gullari yashnagan bog'bon misoli, dalasida xirmon-xirmon hosil olgan dehqondek xonamga sig'mayman. Olim yangi kashfiyoti ustida ish olib borayotgandek, hech nega parvo qilmayman.

Shunday pallada kelinoyim non yopadi, o'choqqa o'tin qalaydi, onam dalaga urug' sepadi, ko'chat ekadi, dugalim kir yuvadi, qaynonasiga ko'kchuchvara tugadi, tunda bolasiga alla aytib chiqadi.

Hamon xonamga qamalib olganman, go'yo buyuk ish bilan bandman. Opam yilda bir mehmonga keladi,

suhbatimizni chala qoldirib, xonamga kirib ketaman. Qaynonasining injiqliklaridan bezib, bir taskin so'z izlab, qo'ng'iroq qilgan dugonamga ham javobim shu – kechirasani, yozishim kerak.

Men dunyoga bir yumush bilan kelganman – faqat yozish uchun. Barini unutib, barini eslab yozaman – alamdan, baxtdan, sevinchdan, ko'z yoshdan. Bu kechmish alhol mening qismatim.

Tashqarida meni baxt kutib turibdi, qo'lida anvoyi gullar. Chiqmayman. O'tkinchi baxt bilan gap sotmayman. Uning gullari ham sun'iy.

U qo'ng'iroq qiladi: men ketdim...

Bunga parvo qilmay, o'z ishimda davom etaman.

Garchi ular arziri-arzimasdir, qanday bo'lsa ham yozaveraman...


Xontaxtaga bosh qo'yib uxlab qolganimda esa suhbatdoshim xonani tark etgandi. Ko'zimni ochganimda derazadan uchib kirgan shamol dilparchalarimni har yoqqa sochib tashlagandi...



Xosiyat ABDURAHMONOVA

*Hech to'xtamasdan harakat qilub turg'on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lma'g'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydandan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur.*

Abdulhamid CHO'LPOV



Nurmuhammad ABDUZOIR

\*\*\*  
Yovqur jangchi bo'lmoqchi edim,  
Yog'iyalar ko'ksiga tig' urgan askar.  
Telbalikka, mardlikka moyil,  
Yuragim qaqshar...

O, Najmiddin Kubrolar yonib,  
Jonin fido aylagan paytda –  
Tug'ilgan bo'lsaydim yov ko'ksin yorib,  
Haydab chiqarardim Vatandan.

Topilmaydi durustroq g'anim,  
Yig'layman, ishlabon qo'l uchi bilan.  
Alam qilar piyoz to'g'rayotganim,  
Amir Temur qilichi bilan.



Iroda RAHMALYIYEVA

## Mirzo Kenjabek g'azaliga nazira

Ey ishq, senmi yondirgan ming xayolot ichinda?  
Bir harorat ichinda, bir halovat ichinda?

Saadatni istadim, himoyatni izladim,  
So'ng ko'nglimga gizladim bir irodad ichinda.

Qarog'larim qon bo'ldi, yo'lim noayon bo'ldi,  
Ming jonim nimjon bo'ldi sen bergan dard ichinda!

"Ko'nglim – kuzgi yaprog'im, ko'ksimning sal chaprog'i",  
Bir diyonat ichinda, bir xiyonat ichinda...

Malaklar ham oh qildi, falak bir nigoh qildi,  
Ismingni tavof qildim, nur-ibodat ichinda.

Qalam so'nggi choradir, jismim dilin yoradir:  
"Tanim muzlab boradir, cho'g', harorat ichinda..."

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON  
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT  
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI  
QO'LLAB-QUVVATLASH  
VA RIVOJLANTIRISH  
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI"  
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:  
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning  
birinchi o'rinbosi:  
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:  
Shuhrat Azizov

Sahifalovchi:  
Erkin Yodgorov  
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat  
nuqtai nazaridan farqlanishi  
mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan  
195115 raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Adadi – 12356  
Buyurtma: G – 140.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.  
Nashr ko'rsatkichi – 222.  
Tashkilotlar uchun – 223.  
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,  
Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:  
(71) 233-11-07

"Sharq" nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti:  
21.00

Bosishga topshirildi:  
21.35

Sotuvda narxi erkin.